

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV HO'JALIGI VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ HO'JALIK INSTITUTI

Veterinariya fakulteti
5 440100 – Veterinariya yo'nalishi
Xo'jakeldiyev Matlab Xayitboy o'g'lining

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«Itlar orasida suyak sinishlarini tarkalishi va ularni konservativ davolash»

Ilmiy rahbar, dotsent

Narziyev B.D.

Veterinariya fakulteti dekani v.v.b.,
dotsent _____N.O.Farmonov
«____» _____ 2016 yil

“Hayvonlar anatomiyasi, fiziologiyasi,
jarroxlik va farmakologiya” kafedrası
mudiri, v.f.d. _____ N.B. Dilmurodov
«____» _____ 2016 yil
№ _____ - sonli yig'ilish bayoni

SAMARQAND - 2016

M U N D A R I J A

1. Kirish.....	3
1.1. Mavzuning xalq xo'jaligidagi dolzarbligi va uni ilmiy asoslash.....	16
2. Adabiyotlar tahlili.....	18
2.1. Suyakning tuzilishi.....	23
2.2. Suyaklar shaklining o'zgarishi.....	30
3. Xususiy tadqiqotlar.....	36
3.1. Materiallarni tekshirish uslublari.....	36
3.2. Suyak sinishlarining klinik belgilari.....	40
3.3. Bog'lamlarning tasniflanishi va ularni qo'yish texnikasi.....	44
3.4. Suyak sinishlarini konservativ davolash.....	55
4. Veterinariya ishini tashkil etish va uning iqtisodi.....	57
5. Hayot faoliyat xavfsizligi.....	73
5.1. Mehnatni muhofaza qilish.....	73
5.2. Fuqarolar mudofaasi.....	74
6. Menejment asoslari.....	76
7. Xulosa va amaliyotga tavsiyalar.....	79
8. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	80
9. Ilova. internet ma'lumotlari	83

1. Kirish

Respublikada mustaqillik sharofati tufayli birinchilar qatorida 1993 yil 3 sentyabrda o'tkazilgan Oliy Majlis sessiyasida "Veterinariya" to'g'risidagi qonun tasdiqlandi.

Davlatimiz rahbari I.A. Karimov har doim qishloq xo'jaligini rivojlantirishga katta ahamiyat berib keladi.

Respublika aholisini chorva mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida, chorvachilikning barcha sohalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar.

Mamlakatimiz ishlab chiqarish va intellektual salohiyatining yarmi-dan ortig'i muayyan tarzda bevosita qishloq xo'jaligi bilan bog'liq. Qishloq xo'jalik mahsuloti mamlakatda valyuta tushumlarining 55 foizidan ortig'ini ta'minlaydigan muhim eksport manbalaridan biri hisoblanadi. Bu masalaning iqtisodiy jihat. Ijtimoiy sohada esa mamlakatning qishloq joylarida istiqomat qiladigan aholisining katta qismining, butun respublika aholisining tushuntirish darajasi, uning moddiy farovonligi qishloq xo'jaligidagi ishlarning ahvoliga uni rivojlan-tirish samaradorligiga bog'liq.

Bugun biz muammoning siyosiy jihatini tobora chuqur anglab yetayapmizki, jamiyatimizning umuman yangilanishi, demokratik jarayonlarining rivojlanishi va ko'p jihatdan qishloq xo'jaligida islohotlar nechog'li samarali kechayotgani, qishloq hayotining barcha jabhalarida qanchalik chuqur kirib borayotgani bilan bog'liq.

Bu vazifalarni hal qilish uchun nafaqat amaliyot, balki fan oldida katta vazifalar turibdi.

O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida" gi Qonunining 251 – moddasiga muvofiq tuman hokimining halq deputatlari tuman Kengashining tumanning 2015 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yunalishlari bo'yicha hisoboti eshitalishi belgilangan.

Biz bugungi majlisimizda 2015 yilda tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlarini muhokama etib, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etish, qushimcha rezervlardan foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilab, davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan iqtisodiy rivojlantirish dasturining 7 ta eng muhim ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirilishini ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlar belgilab olishimiz zarur.

O‘zlarinigiza ma‘lum, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi muhtaram Yurtboshimiz nutqida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotganligiga qaramay, 2015 yilda iqtisodiy dasturning eng muhim yo‘nalishlari va ustuvor vazifalari hamda chuqur tarkibiy o‘zgartirishlar, xususiyl mulk va kichik biznes manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta‘minlash bo‘yicha har tomonlama puxta Dasturning izchil va tizimli amalga oshirilishi natijasida iqtisodiyot o‘shishining barqaror va yuqori sur‘atlariga hamda makroiqtisodiy muvozanatga erishilganligi qayd etildi.

Nufuzli xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlar va ilmiyl markazlar tomonidan yuqori baholanayotgan yutuqlar va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish istiqbollari butun jahonda “o‘zbek modeli” sifatida e‘tirof etilib, bu tanlangan rivojlanish strategiyasining yuqori samaradorligi va muvaffaqiyatini yana bir bor tasdiqlagani alohida qayd etildi. Nufuzli Jahon iqtisodiy forumi reytingiga muvofiq, O‘zbekiston 2014-2015 yillardagi rivojlanish yakunlari va 2016-2017 yillarda iqtisodiy o‘shish prognozlari bo‘yicha dunyodagi eng tez rivojlanayotgan beshta mamlakat qatoridan joy oldi.

Qishloq xo‘jaligi soxasida xam keyingi yillarda amalga oshirilayotgan isloxotlar, yaratib berilgan keng imkoniyatlardan oqilona foydalanish natijasida barqaror o‘shish sur‘atlari saqlanib kelmoqda.

Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘zining ijobiy samarasini berib, shirkat, fermer xo‘jaliklari tomonidan etishtirilayotgan mahsulotlar hajmi doimiy o‘shib borishi, pirovard natijada chupon oylasining daromadini ko‘paytirish imkonini bermokda.

Tuman shirkat xo‘jaliklarida cho‘pon otarlari oilaviy pudrat, pay munosabati va chek tizimi orqali ish yuritmokda.

Material xarajatlarining chek tizimida ishlatilishi uning iqtisod qilinishida o‘zining ijobiy natijasini berib, brigada a‘zolarining yakuni natijaga bo‘lgan qiziqishini tug‘dirmokda.

Barcha toifadagi xo‘jaliklarda joriy yil boshiga mayda shohli mollar 316 ming boshni, yirik shohli qoramollar 2494 boshni, otlar 4037 boshni, tuyalar 2488 boshni tashkil etib, hisobot davrida jami 10351 tonna go‘sht, 41,5 ming dona qorakul terisi, 480 tonna jun, 2380 tonna sut etishtirildi.

Shirkat xo‘jaliklarida 2016 yilning 1 yanvar holatiga mayda shohli mollar 240,4 ming boshni, yirik shohli kora mollar 641 boshni, otlar 2949 boshni, tuyalar 1547 boshni tashkil etib, utgan yilga nisbatan mayda shohli mollar 4,4 ming boshga, yirik shohli qora mollar 284 boshga, otlar 149 boshga, tuyalar 5 boshga ortti.

Qo‘zilatish mavsumida ho‘jaliklarda 50,2 ming bosh qo‘zi o‘stirishga qoldirilib, ushbu ko‘rsatkich utgan yilga nisbatan 120,0 foyzga bajarildi.

Ho‘jaliklarda 2014 yilga nisbatan gusht etishtirishni 3,4 foyzga, sut etishtirishni 5,1 foyzga, jun etishtirishni 4,6 foizga ko‘paytirishga erishildi.

Fermer xo‘jaliklarida 3624 bosh mayda shohli mollar, 83 bosh yirik shohli mollar, 81 bosh otlar kutimga olinib, fermerlar tomonidan 81,0 tonna go‘sht, 667 dona korakul terisi, 6,6 tonna jun, 26,4 tonna sut etishtirildi.

Tumanda o‘tgan yilda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan dasturga asosan jami 4 ta loyiha shundan, 2 ta qoramolchilik (go‘sht etishtirishni kengaytirish), 1 ta parrandachilik, 1 ta issiqxona xo‘jaligi foydalanishga topshirildi.

Lekin, qishloq xo‘jaligi soxasida amalga oshirilgan ishlar bilan birqatorda kamchiliklarga xam yo‘l quyildi.

Xo‘jalik raxbarlari va mutaxassisilari tomonidan belgilangan choralarning o‘z muddatida bajarilmasligi, nazorat ishlarining olib borilmaganligi “Yo‘l xaritasi”da rejalashtirilgan mol bosh soni prognozi, byudjet va byudjetdan tashqari

jamg'armalar oldidagi qarzdorlikni keskin kamaytirish ishlarining amalga oshirilmasligiga olib keldi. "Yo'l xaritasi" bo'yicha mol bosh soni "Keregetau", "Balimanov", "Kerizbulaq", "Ayaqquduq", "Tomdi" shirkat xo'jaliklarida bajarilmadi.

Shuningdek, byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalardan qarzdorlikni undirish topshirig'i atiga 25,1 foizga bajarildi.

Tumanda yil yakunida shirkat xujaliklarining debitorlik qarzlar 529 mln. sumni, kreditorlik qarzlar 7628 mln. sumni tashkil etib, yil boshiga nisbatan debitorlik qarzlar 1126 mln. sumga, kreditorlik qarzlar 1606 mln. sumga kamaygan.

Xo'jalik raxbarlari uzlariga tegishli xulosalar chiqarib, yuqoridagi yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etishlari shart.

Hurmatli sessiya ishtirokchilari!

Barchamizga ma'lumki, mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatiga ustivor yo'nalish sifatida e'tibor qaratilib, bu borada keng ko'lamdagi isloxotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 6 fevraldagi PQ-2124-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar Dasturi bu borada amalga oshirilayotgan ishlarning yangi bosqichiga kutarilishiga xizmat qilmoqda.

Mazkur dastur asosida tumanda mutasaddi tashkilotlar tomonidan 300 dan ortiq ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy hamda huquqiy tadbirlar, uchrashuvlar, davra suxbatlari, festivallar va targ'ibot loyihalari, shuningdek 20 dan ortiq ko'rik-tanlov va sport musobaqalari o'tkazildi.

Natijada, Dasturga muvofiq o'tkazilgan barcha tadbirlarga jami 3 mingga yaqin tumanimiz yoshlari qamrab olindi.

Joriy yilda 8 ta bo'lim, 49 ta banddan iborat ishlab chiqilgan tuman dasturi 2015 yil 29 dekabrda Xalq deputatlari tuman Kengashining navbatdagi 6-sessiyasiga "Tumanda 2016 yilda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga

qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar Dasturi” masala qilib kiritilib, deputatlar tomonidan ma’qullandi.

Ushbu dasturda belgilangan tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli ijrosini ta’minlashni tashkil etish har bir yo‘nalishga biriktirilgan mas’ullar zimmasiga yuklatiladi.

Tumanimizdagi ovul fuqarolar yig‘inlari moddiy-texnika bazasini mutahkamlashda xam birmuncha ishlar amalga oshirilib fuqarolar yig‘inlari kompyuter jamlamasi va mebel jixozlari bilan ta’minlanmoqda.

Joriy yilda “Keriz” va “Aqto‘v” ovul fuqarolar yig‘inlarining binolarini 2-chi chorakda ta’mirdan o‘tkazish rejalashtirildi.

Hurmatli sessiya ishtirokchilari!

Bugungi kunda Muxtaram Prezidentimiz tomonidan asosiy ustuvor vazifalarning biri etib aholi bandligini ta’minlash, ayniqsa kasb-hunar kolleji bitiruvchilari uchun yangi ish joylarini yaratish masalasi belgilangan.

Tumanda 2015 yilda jami 310 ta (shundan xotin-qizlar uchun 54 ta) yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Lekin, NKMK Davlat korxonasi hamda “Uzneftegaz” MXK, “HUAWEI”, “SUNTECH”, “CMEC” (KNR) qushma korxonasi tomonidan ushbu loyihalar hisobiga 371 ta ish o‘rinlari yaratilmadi.

Bundan tashqari sanoat yunalishida 5 ta, tijorat banklarining kichik korxonalar va mikrofirmalarni tashkil etish uchun ajratiladigan kreditlari xisobiga 44 ta, yakka tadbirkorlikni rivojlantirish xisobiga 10 ta ish urni yaratilmadi.

2015 yilda tumandagi “Agroiqtisodiyot” kasb-xunar kollejini 80 nafar talaba yoshlari bitirgan bo‘lib, shundan 33 nafari qizlarni tashkil etadi.

Bitiruvchilarning 72 nafarining bandligi ta’minlanib, 5 nafar bitiruvchi bola parvarishida va 2 nafar bitiruvchi ko‘chib ketgan bo‘lib, 1 nafar bitiruvchi nogiron xisoblanadi.

Lekin, tuman tijorat banklari tomonidan bitiruvchilarga kredit ajratish masalasi umuman talabga javob bermaydi.

Tuman “Agroiqtisodiyot” kasb-hunar kollejini joriy yilda 2 ta yunalish bo'yicha 73 nafar (kompyuter tizimlarini sozlash va ta'mirlash texnigi – 47 nafar, qishloq xo'jaligi mashina va jihozlariga xizmat ko'rsatish mexanigi – 26 nafar) bitiruvchilarini ishga joylashtirish bo'yicha 27 ta sub'ektlar bilan turt tomonlama shartnomalar to'liq tuzildi.

Barcha korxona va tashkilot rahbarlari, ayniqsa tuman Bandlikka kumaklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazi, tuman Iqtisodiyot bo'limi rahbarlaridan birinchi navbatda kollej bitiruvchilarini ishga joylashtirish masalasiga mas'uliyat bilan qarash talab etiladi.

Tijorat banklari rahbarlariga tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagini bildirgan kollej bitiruvchilariga imtiyozli kredit ajratish topshirig'i beriladi. Kam quvvatli, faoliyat yuritmayotgan korxonalar, bo'sh turgan va qurilishi tugallanmagan ob'ektlar negizida ishlab chiqarishlarni tashkil etish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha dasturga kiritilgan “Urazshaeva Asel” oilaviy korxonasida non va qandolat mahsulotlarini ishlab chiqari loiyhasi ishga tushirildi. Tumanda aholiga servis va xizmat kursatish shaxobchalarini tashkil etish rejasi bajarilgani bilan ushbu sohadagi ishlarimiz talabga javob bermaydi.

Barcha ovul fukarolar yig'inlari raxbarlariga xududlarda aholiga servis va xizmat kursatish sohasini rivojlantirish vazifasi yuklatiladi.

Utgan “Keksalarni e'zozlash yili”da xalqimiz manfaati va turmishiga, yurt ravnaqiga xizmat qiluvchi ezgu ishlarga tumanimizda 3901 mln. so'm mablag' sarflanib, belgilangan reja 102,4 foizga bajarildi.

Ushbu o'zlashtirilgan mablag'lar negizida, keksalarga yanada kuproq shart-sharoitlar yaratish, turmush tarzini yaxshilash, turli uchrashuvlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar uyushtirish, ularning sog'lig'ini mustaxkamlash kabi qator tadbirlar amalga oshirildi.

Muxtaram Prezidentimiz 2016 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining eng muhim ustuvor yo'nalishlarini belgilab berar ekanlar, “Biz uchun asosiy vazifa – ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan uzluksiz yangilab borish, doimiy ravishda ichki imkoniyat va zahiralarni izlab topish,

iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni izchil davom ettirishdan iborat bo'lishi zarur, "deb ta'kidladilar.

Ushbu ustuvor yo'nalishlarni tuman miqyosida to'la va sifatli bajarish uchun bugun har birimiz o'z oldimizda turgan vazifalarni aniqlab olishimiz va yil davomida uni amalga oshirib borishimiz talab etiladi.

Muhtaram Yurtboshimiz tomonidan 7 ta eng muhim ustuvor yo'nalish ushbu marralarga erishish uchun muhim asos hisoblanadi.

2016 yilda belgilangan asosiy iqtisodiy kursatkichlar prognozini, jumladan sanoat, xalq ist'emoli mollarini ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, pullik va jami xizmatlar, chakana savdo aylanmasi, qurilish, xududiy eksport topshirig'ini bajarish yuzasidan barcha zaruriy choralarni bugundan ko'rishimiz talab etiladi.

Shuningdek, 2016 yilda maxalliyashtirish dasturi asosida 588,0 mln. so'mlik importbop maxsulotlar ishlab chiqarilishi kutilmoqda.

Maqsadli dasturda belgilangan loyixalarni, jumladan hududiy ishlab chiqarish ob'ektlarining tashkil qilish dasturidagi jami loiyha qiymati 150,0 mln.so'mni tashkil etadigan 6 ta loiyhani, tumanni 2016-2017 yillarga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining sanoat yo'nalishi bo'yicha Respublika on-layn tizimiga kiritilgan jami loiyha qiymati 2585,0 mln.so'mlik 7 ta loiyhani muddatida ishga tushirishiga aloxida e'tibor qaratilishi lozim.

Aholining ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash maqsadida tumanda 0,5 km. ichimlik suvi tarmoqlari foydalanishga topshiriladi. Buning xisobiga 75 aholi honadonlariga toza ichimlik suvi bilan ta'minlanishiga erishiladi.

Qishloq xo'jaligi sohasida iqtisodiy isloxotlarni chuqurlashtirish, shirkat xo'jaliklarining iqtisodiy ahvolini yaxshilash maqsadida 2016 yilda mol bosh soni, go'sht, jun, qorakul terisini etishtirish bo'yicha belgilangan rejalarni bajarish kuzda tutilmoqda.

Kuzlangan maqsadlarga erishish uchun biz 2016 yilda qishloq xo'jaligi sohasi bo'yicha jami 30 ta loyixani, jumladan qoramolchilik bo'yicha 4 ta, quychilik bo'yicha 14 ta, tuyachilik bo'yicha 3 ta, echkichilik bo'yicha 2 ta,

kurkachilik bo'yicha 7 ta loyixani muddatida ishga tushirishni ta'minlashimiz zarur.

2016 yil dasturi bo'yicha "Abay" massivida umumiy qiymati 5 mlrd. 171,9 mln. so'mga teng bo'lgan 30 ta namunali uy-joylar qurilishi, umumiy qiymati 2307 mln. so'mga teng bo'lgan 1 ta infratuzilma ob'ekti, 1 ta sog'liqni saqlash muassasasi, 3 ta ichimlik suv va 1 ta boshqa ob'ektlar qurilishi belgilangan bo'lib, bugungi kunda tanlov savdolarini o'tkazish ishlari davom ettirilmoqda.

Joriy yilda xam aholi bandligini ta'minlash masalasi eng muhim vazifamiz bo'lib qoladi.

2016 yilda yangi ish o'rinlarini yaratish dasturiga asosan, jami 500 ta (shundan xotin-qizlar uchun 79 ta) yangi ish o'rinlari yaratish muljallanmoqda.

Tuman kollejini joriy yilda 73 nafar bitiruvchilarini ishga joylashtirish bo'yicha 27 ta sub'ektlar bilan turt tomonlama shartnomalar to'liq tuzildi va oldimizda bitiruvchilarni tuliq ish bilan ta'minlash vazifasi turibdi.

Tumanda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, elektron xujjat aylanish tizimlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, shuningdek aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga ko'rsatilayotgan interaktiv davlat xizmatlarining sifatini yanada oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda.

Muxtaram yurtboshimiz tomonidan 2016 yil "Sog'lom ona va bola yili" deb e'lon qilinganliklari avvalambor, Xalqimizning asriy an'alaridan kelib chiqqan xolda, faqatgina sog'lom onadan sog'lom bola to'g'ilishiga, ona va bola sog'lom bo'lsa, oila baxtli, oila baxtli bo'lsa, jamiyat mustahkam bo'lishiga qat'iy ishonishning yana bir amaliy ifodasi bo'lib, bu ettinchi ustuvor vazifa etib belgilandi.

«Sog'lom ona va bola yili» davlat dasturi

Xalqimizning asriy an'alarini hisobga olib, «Ona va bola sog'lom bo'lsa, oila baxtli, oila baxtli bo'lsa, jamiyat mustahkam bo'ladi» degan hayotbaxsh qadriyat va olijanob g'oya jamiyatda chuqurroq anglab yetilishiga va qaror topishiga yo'naltirilgan keng chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish, oilani,

onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish, jamiyatda onalarga alohida hurmat-e'tibor muhitini shakllantirish, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, oilaning mustahkam, sog'lom va ahil bo'lishida mahalliy davlat hokimiyati organlari va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish maqsadida, shuningdek 2016 yil O'zbekiston Respublikasida «Sog'lom ona va bola yili» deb e'lon qilinganligi munosabati bilan:

1. «Sog'lom ona va bola yili» Davlat dasturi ilovaga muvofiq tasdiqlansin, quyidagilar uning ustuvor vazifalari va amalga oshirilishi yo'nalishlari etib belgilansin:

oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ayollar manfaatlarini himoya qilish, sog'lom bolani tarbiyalashda ularning rolini oshirish, kuchli, barqaror va ravnaq topayotgan davlatning negizi sifatida oila institutini mustahkamlashga yo'naltirilgan qonunchilik va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;

olis va chekka qishloq tumanlarida yashayotgan aholi, ayniqsa ayollar uchun zarur ijtimoiy, maishiy va tibbiy nuqtai nazardan zarur shart-sharoitlar yaratish, qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosidagi zamonaviy uy-joylar, ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish, qishloq aholisini toza ichimlik suv, tabiiy gaz bilan ta'minlash, xizmatlar ko'rsatish va servis darajasini yuksaltirish borasidagi ishlarni izchil davom ettirish;

tibbiyot muassasalarining, jumladan perinatal va skrining markazlarning moddiy-texnika bazasini va kadrlar salohiyatini yanada mustahkamlash, oilaviy poliklinikalar va qishloq vrachlik punktlarining ish samaradorligini oshirish, patronaj tibbiyot hamshiralarining sonini ko'paytirishni ta'minlash, akusher-ginekologlar va bolalar shifokorlari malakasini oshirish;

nikohga kirayotgan shaxslarning nikohdan oldin to'liq tibbiy ko'rikdan o'tishini ta'minlash uchun tibbiyot xodimlarining mas'uliyatini kuchaytirish, shu asosda tug'ma va irsiy kasalliklar sonini kamaytirish hamda ushbu maqsadlarda poliklinikalarni zamonaviy tashxis uskunalari bilan jihozlash, ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, mustahkam oila qurish va sog'lom farzand tug'ilishi uchun nikohdan oldin tibbiy ko'rikdan o'tishning muhimligini aholi keng

qatlamlari ongiga singdirishga qaratilgan keng qamrovli tushuntirish ishlarini olib borish;

aholining tibbiy madaniyatini oshirish, sanitariya va gigiyena, homilador ayollarning sog'lig'ini saqlash va psixofiziologik ahvolini yaxshilash, yosh onalar va bolalarni tegishli tarzda parvarish qilish sohasidagi ishlarni kuchaytirish, ularning ovqatlanish rasioni sifati va kaloriyasi yaxshilanishini ta'minlash;

yoshlar orasida jismoniy tarbiya va sportni keng ommalashtirish, yoshlarni, ayniqsa qishloq joylarda qizlarni sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish, yangi sport obyektlarini qurish, ishlab turganlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy sport uskunalari va anjomlari bilan jihozlash, yuqori malakali trener kadrlar va murabbiylar bilan ta'minlash;

mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik va farovonlikni yanada mustahkamlashning muhim sharti sifatida oilalarda sog'lom ma'naviy muhitni, xususan, o'zaro hurmat-ehtirom, er-xotin o'rtasida, ota-onalar bilan farzandlar, qaynona-kelin o'rtasida, qo'ni-qo'shnilar o'rtasida mehr-oqibat ruhini shakllantirish;

qiz bolalarni - bo'lajak onalarni - jismonan sog'lom va intellektual rivojlangan tarzda voyaga yetkazish, ularning akademik liseylar va kasb-hunar kollejlariida albatta ta'lim olishini, zamonaviy bilimlar va kasb-hunarlariga ega bo'lishlarini ta'minlash, ularning hayotda munosib o'rin egallashlarida, kelajakda sog'lom va mustahkam oila qurishlarida asosiy shart hisoblangan hayotga bo'lgan mustahkam nuqtai nazarni va mustaqil fikrlashni shakllantirish;

sog'lom bolani voyaga yetkazishda ta'lim tizimining rolini kuchaytirish, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini yanada rivojlantirish, bolalarni maktabga tayyorlash darajasini tubdan oshirish, ilg'or pedagogika va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etgan holda boshlang'ich ta'limning yuqori sifatini ta'minlash, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish tadbirlarini amalga oshirish;

kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini, avvalo qizlarni ishga joylashtirish, o'z biznesini yo'lga qo'yish ishtiyoqidagi yoshlarga imtiyozli kreditlar, yosh oilalarga

uy-joy sotib olish va qurish uchun ipoteka kreditlari, uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar xarid qilish uchun iste'mol kreditlari ajratish chora-tadbirlarini ta'minlash;

dasturiy chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq masalalarni hal etishda mahalliy hokimiyat organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, xotin-qizlar va yoshlar birlashmalari, faxriylar tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash, bu ishlarga jamiyatda hurmat va obro'-e'tiborga sazovor bo'lgan keksa avlod vakillarini keng jalb etish;

ommaviy axborot vositalari, shu jumladan elektron axborot vositalarining va Internet tarmog'ining imkoniyatlaridan faol foydalangan holda «Sog'lom ona va bola yili» Davlat dasturining maqsad va vazifalari hamda Dasturning amalga oshirilishi to'g'risida keng axborot-tushuntirish ishlarini tashkil etish.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 10 dekabrda F-4577-son farmoyishi bilan tashkil etilgan Respublika komissiyasiga Davlat dasturiga kiritilgan tadbirlar to'liq, o'z vaqtida va sifatli bajarilishini tashkil etish va nazorat qilish yuklansin.

bir hafta muddatda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlarda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va tegishli hududlarning hokimlari boshchiligida Davlat dasturini amalga oshirish bo'yicha tegishli komissiyalar tashkil etilishini ta'minlasin, ularga Davlat dasturida nazarda tutilgan tadbirlar so'zsiz, to'liq va o'z vaqtida amalga oshirilishi uchun shaxsiy mas'uliyatni yuklasin;

ikki hafta muddatda vazirliklar, idoralar, aksiyadorlik kompaniyalari, uyushmalar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari tomonidan har bir davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, viloyat, shahar, tuman va aholi punkti bo'yicha «Sog'lom ona va bola yili» tarmoq va hududiy dasturlari ishlab chiqilishi va qabul qilinishini;

Davlat dasturiga kiritilgan tadbirlar to'liq va o'z vaqtida bajarilishiga qaratilgan ishlarni davlat va xo'jalik boshqaruvi respublika organlari, mahalliy

davlat hokimiyati organlari darajasida muvofiqlashtirilishini ta'minlasin, tadbirlar amalga oshirilishi ustidan tizimli nazorat o'rnatish;

yilning har bir choragi yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat dasturida nazarda tutilgan tadbirlar bajarilishi to'g'risidagi axborot taqdim etilishini ta'minlasin.

3. O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligi:

Davlat dasturining maqsad va vazifalari, uni amalga oshirish bo'yicha asosiy yo'nalishlar va chora-tadbirlar bosma va elektron ommaviy axborot vositalari, shu jumladan Internet tarmog'i jalb etilgan holda aholi orasida muntazam, tizimli va keng yoritilishini;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, mahallalar, nodavlat notijorat tashkilotlari Davlat dasturida nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirishda amalda ishtirok etishi va aniq ulush qo'shishi aks ettirilgan holda uning amalga oshirilishidan keng jamoatchilik doimiy ravishda xabardor qilinishini ta'minlasinlar.

Prezidentning 308 va 842-qarorlari. O'zbekiston Respublikasi hukumati va Prezidenti I.A. Karimov tomonidan keyingi yillarda qishloq xo'jaligini, chorvachilikni rivojlantirishga juda katta e'tibor berilmoqda. Bu borada Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning bir qancha farmonlari va qarorlari e'lon qilindi. Bulardan biri 23 mart 2006 yilda chiqarilgan "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirilishini rag'batlantirish chora – tadbirlari to'g'risida" 308 – qarori va "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollar ko'paytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2008 yil 21 apreldagi PK-842 qarori chorvachilikni, yilqichilikni, qo'ychilikni, itchilikni rivojlantirishga yana bir turtki berdi.

Respublikimiz mintaqasida kechayotgan iqtisodiy islohotlar asosida yangi mulkchilikda shakllangan tipdagi xo'jaliklarni yaratish, bu xo'jalik-larni iqtisodiy va xususiy negizlarini ishlab chiqish, shu asosida aholini oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirish, ma'naviy-mafkuraviy yangi dunyo-qarashni shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi.

Fermer xo'jaliklari tashkil etilganidan keyin, nafaqat sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish, balki ishlab chiqilayotgan maxsulotlar tannarxini pasaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz I.A. Karimov qarorlarida chorva mollarni yanada ko'paytirish, shu asosda qishloq aholisining bandligi va daromadlarini, go'sht-sut mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sishini oshirish hamda ichki iste'mol bozorining to'ldirilishini ta'minlash maqsadida: shaxsiy yordam-chi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarni ko'paytirish va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar 1-ilovaga muvofiq; 2008-2010 yillardagi davrda shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida qoramollar soni ko'payishining maqsadli parametrlari 2-ilovaga muvofiq; 2008-2010 yillarda sug'oriladigan yerlarda yem-xashak ekinlari maydonlarining hisoblab chiqilgan prognozi 3-ilovaga muvofiq ma'qullansin.

O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, tijorat banklarining 4-ilovaga muvofiq shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklariga qoramol sotib olish uchun mikrokreditlar ajratishni kengaytirish to'g'risidagi taklifga rozilik berilsin.

Vazirlar Maxkamasining qishloq va suv xo'jaligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash hamda iste'mol tovarlari kompleksi bir oy muddatda yem-xashak, shrot va sheluxa sotishga ixtisoslashtirilgan punktlar tarmog'ini inventarizasiyadan o'tkazish, bunda ularning viloyatlar, tumanlar va aholi punktlari bo'yicha oqilona joylashtirilishini yem-xashak iste'mol-chilari – fermerlar, shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklari egalarining ulardan keng foydalanishi ta'minlanishini nazarda tutsin.

Mazkur ixtisoslashtirilgan yagona punktlar negizida tuman va viloyat birlashmalari tashkil etilsin.

O'zbekistonda Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda Davlat Bosh veterinariya boshqarmasi zooveterinariya punktlarini, kamida 10 yil mobaynida ularning faoliyat yo'nalishini o'zgartirmaslik sharti bilan, shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklariga zooteterinariya xizmat-lari ko'rsatish sohasida xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun davlat tasarrufidan chiqarish hamda xususiylashtirish bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

2012 yilning 1 yanvarigacha bo'lgan davrda zooveterinariya punktlari korxonani ro'yxatga olishda va veterinariya faoliyatini amalga oshirish huquqiga lisenziya berishda davlat boji to'lashdan ozod qilinsin. Fermer xo'jaliklari va chorvachilik fermalari chorvachilik mahsulotlarini, uning qayta ishlangan mahsulotini sotish tushumidan davlatning maqsadli jamg'armalari hamda maktab ta'limi jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan ozod qilinsin.

1.1. Mavzuning xalq xo'jaligidagi dolzarbligi va uni ilmiy asoslash

Respublika aholisini chorva mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida uning barcha yo'nalishlari kabi itchilikni rivojlantirish ham ustivor vazifa bo'lib hisoblanadi.

K.I. Shakalov (1981)ning ma'lumotiga ko'ra yuchki yuqumsiz kasalliklar qishloq xo'jalik hayvonlari orasida keng tarqalgan bo'lib, o'rtacha 94-97 % ni tashkil qiladi, ulardan 40-70 % esa jarroxlik kasalliklariga to'g'ri keladi. Bu kasalliklar chorvachilikda, xususan fermer xo'jaliklariga katta iqtisodiy zarar yetkazadi. Itlar ham boshqa hayvonlarga o'xshab turli kasalliklarga chalinadi.

Davlatimiz mustaqil bo'lgandan keyin itlarga bo'lgan ehtiyoj yana ham ortdi. Chunki mustaqil davlatni mustaqil chegarasi bo'lishi kerak, uni qo'riqlashda chegarachilarga itlar katta ko'mak beradi. Hozirgi vaqtda itshunoslik xalq xo'jaligining turli sohalarida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Qishloq xo'jalik, xizmat, dekorativ, sport va maxsus itshunoslikning rivojlanishiga talablar yanada

oshdi, chunki bu hayvonlar odamlarning eng yaqin yordamchilariga aylanib qolgan.

Itlardan foydalanishning barcha shakllarini va ularning odamning ma'naviy dunyosini boyitishdagi rolini hisoblab o'tish qiyin. Cho'l va tog' chorvachiligida qo'llaniladigan cho'pon itlari qo'y otarlarni yirtqich hayvonlardan himoya qiladi, hayvonlarni boqishda va joydan joyga ko'chirganda yordam beradi va shu bilan cho'ponlarga sezilarli darajada ko'maklashadi. Itlar geolog, g'avvos, aloqachi, nogiron, sanitar va qutqaruvchilarning buyruqlarini bajaradi. Itlar xalq xo'jaligida ishlatilishi bilan birgalikda sirk, dekorativ va havaskorlik hamda ilmiy izlanishlar kabi boshqa yo'nalishlarda ham qo'llanadi.

Ko'p ilmiy ixtirolar ham itlar bilan bog'liq. Masalan, I.P. Pavlovning oliy nerv faoliyati sohasidagi eksperimental tekshirishlar natijalarini odam va hayvonlar ruhiy hamda fiziologik faoliyatini tushunishning asosiga qo'yilgan. Ko'pchilik dori vositalari ta'siri birinchi navbatda itlarda tekshiriladi.

Itlarda boshqa hayvonlardek kasalliklar rivojlanishi, jarohatlar olishi, suyaklari sinishi mumkin. Kasallik sababiga ko'ra ichki yuqumsiz, yuqumli, parazitlar va xirurgik bo'lishi mumkin.

Oyoq kasalliklari yuqumsiz kasalliklarning 10-15 % ini tashkil etadi. Oyoq kasalliklari ichida barcha turdagi hayvonlarda, lekin ayniqsa itlarda suyak sinishlari ko'p miqdorni tashkil qiladi. Itlar orasida shikastlanishlar ko'p tarqalgan. Bu itlar uchun katta muammo bo'lib turibdi. I.B. Samoshkin (1989) ning ma'lumotlariga ko'ra ichki yuqumsiz kasallik-larning 12 % ni shikastlanishlar tashkil qiladi.

Shikastlanishlar orasida har xil suyaklarning sinishi katta foizni tashkil qiladi. Sinishlarni konservativ va xirurgik yo'l bilan davolash mumkin. Konservativ usulga shinali, gipsli, yelimli bog'lamlarni qo'llash kirsa, xirurgik usulga esa har xil usul bilan olib boriladigan osteosintez usuli kiradi. Asosan xirurgik amaliyotda intramedulyar va plastinkali osteosintez qo'llaniladi. Ikkala usul ham yaxshi natija beradi, lekin suyakning sinishiga qarab u yoki bu usul qo'llaniladi.

2. Adabiyotlar tahlili

Suyak sinishlarini konservativ usullar bilan davolashda yopik sinishlarda shikastlangan a'zo harakatchanligini va singan suyak bo'laklarining o'zaro siljishinining oldini olish lozim. Yopiq sinishni ochiq sinishga aylanishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Buning uchun singan joyga taxtakachlar qo'yiladi. Ochik sinishda xirurgik ishlov beriladi. Immobilizasiya uchun fanera, daraxt shohlari, taxta, daraxt po'stlog'i; sim, plastmasa, metaldan tayyorlangan taxtakachdan foydalaniladi.

Yopiq sinishlarda singan bo'laklar o'zaro to'g'ri biriktiriladi va ularning mustahkam immobilizasiyasi ta'minlanadi

Gippokrat birinchi marta suyaklarni joyiga keltirish maqsadida xalqlar ixtiro qilib, ularni qo'llagan.

N.V. Sklifosovskiy va I.V. Nasilov birinchi marta intramedulyar osteosintez uchun "russkiy zamok" usulini taklif qildilar.

Keyinchalik osteosintezsuyak sinishlarini shtiftlar yordamida o'tkazish masalasiga o'z tekshirishlarini A.A. Kuzmin, L.K. Spincharniy, Ya.P. Dibrov (1946), F.R. Bagdanov, L.A. Krupkov va boshqalar qaratgan. Birinchi marta A.S. Persoverniy oyoqlarni uzaytirish apparatini ixtiro qildi.

Hozirgi paytda olimlardan R.A. Ilizarov, O.N. Pupukmuri, M.Z. Volkov, O.V. Oganessian va boshqalar (1979) tomonidan oyoqlarni mustahkam ushlaydigan va uzaytiradigan apparatlar taklif qilishgan. Asosan ikki xil osteosintez usuli taklif qilingan: ichki va tashqi (apparat yordamida). S.S. Tkachenko (1987).

Ichki osteosintezda singan suyaklar xirurgik yo'l bilan bir-biriga yaqinlashtirilib, har xil materiallar yordamida fiksasiya qilinadi. Ichki osteosintez usullari orasida hozirgi paytda intramedulyar osteosintez usuli keng tarqalgan bo'lib, bu usulda suyaklarni fiksasiya qiladigan material suyaklarning ilik bo'shlig'iga yuboriladi.

Suyak usti osteosintezida esa singan suyakning ustidan qo'yiladigan plastinkalar yordamida fiksasiya qilinadi. (L.B. Simashkin, 1989; S.S. Tkachenko, 1984).

Suyaklarning sinishini davolashdan oldin albatta uning anatomo-morfologik tuzilishini bilish kerak.

Suyak sistemasi hayvon organizmida statiko-dinamik va metabolitik rolni o'ynaydi. Hayvon tanasi alohida 200 suyakdan tashkil topgan va ularning har bittasi o'zining funksiyasiga ega. (V.A. Lukyanovskiy va boshqalar, 1984).

Anatomik suyaklar quyidagilarga bo'linadi: uzun, kalta, yassi va aralash. Uzun suyaklar odatda richag vazifasini bajaradi, kalta suyaklar bir-biri bilan birlashib egiluvchanlik vazifasini bajaradi. Yassi suyaklarga muskullar birlashadi va ular bo'shliqlar hosil qiladi. (A.D. Belov, 1975). Suyaklar 10 kg/mm^2 bosimga bardosh beradi. Suyaklar juda qattiq, ular g'isht-dan 30 baravar, xarsang toshdan 2,5 baravar mustahkam bo'ladi. (Ya.L. Filippov, 1986).

Mineral komponentlar suyak og'irligining 60 % ini tashkil qiladi, organiklar 30 % bo'lsa, qolgan 10 % ini suv tashkil qiladi. Organika qismi asosan oqsil substansiyasidan tashkil topgan. Uning asosini, ya'ni 95 % ni oqsil kollageni tashkil qiladi, qolgan 5 % ini kallagen bo'lmagan oqsillar tashkil qiladi, bu yog'lar, uglevodlar, mineral elementlar (ammoniy, bariy, ftor, beriliy, stronsiy, rux va boshqalar, ya'ni 30 ga yaqin) dir. Bundan tashqari organik kislotalar, garmonlar, vitaminlar suyakning modda alma-shinuvining regulyatori hisoblanadi. (Ya.L. Filippov, 1986), M.A. Lukyanovskiy va boshqalar, 1984).

Suyak quyidagi minerallardan tashkil topgan: 85 % fosfor, 10 % kalsiy karbonat, 1,5 % magniy va qolgan 3,5 % natriy, kaliy, xlor. Shuni aytish lozimki, kalsiy 99 % suyakda joylashadi va faqatgina 1 % qon zardobida va muskullarda bo'ladi. (M.V. Plaxotin, 1979).

Suyak to'qimasining faol yuzasi 2 ming kvadrat kilometr ga teng. Suyak qattiq va g'alvirsimon moddadan tuzilgan.

Ya.L. Filippovning (1986) ma'lumotlariga ko'ra 3 xil suyak hujayra-lari mavjud: osteoblastlar, osteozitlar va osteoplastlar. Osteoblastlar – bu suyak hosil qiluvchi hujayralar hisoblanadi.

Hujayralar katta, qoramtir donador sitoplazmadir. Sitoplazmasi ribonuklein kislota bilan boy.

Osteoplastlar – pishib yetilgan bir-biri bilan o'simta orqali birla-shadigan hujayralardir. Osteoplastlar ko'p hujayrali gigant hujayralar, suyak to'qimalari so'rilishi bo'lgan joyda paydo bo'ladi.

M.V. Plaxotin (1979) ning ta'kidlashicha, sinish bu – kuchli zarba ta'sirida suyakning anatomik birligining qisman yoki to'lig'icha buzilishiga aytiladi. Bunda yumshoq to'qimalarning shikastlanishi ham kuzatiladi.

Kelib chiqish sababiga ko'ra sinishlar tug'ma va orttirilgan bo'ladi. Birinchisi homila davrida qorin devori orqali kuchli zarbalar yoki bachadonning kuchli qisqarishi natijasida kelib chiqadi. Orttirilgan sinishlar hayvon hayoti davomida har xil ta'sirotlar natijasida kelib chiqishi mumkin. Shikastlanish, zo'riqish yoki suyakning anatomo-fiziologik mustahkamligi yo'qolganda, ya'ni bo'g'ozlik, raxit, osteomalyasiya, avitaminoz va boshqalar natijasida kelib chiqadi.

Barcha sinishlar xarakteri bo'yicha ochiq va yopiq'larga bo'linadi. Birinchisida sinish natijasida yumshoq to'qimalardan tashqari teri shikastlanadi, ikkinchisida esa teri qavati shikastlanmaydi.

Suyak sinishlari shikastlanish darajasiga qarab to'lig'icha va qisman sinishlarga bo'linadi.

Qisman sinishlarga quyidagilar kiradi: yorilish, darz ketish, qisman sinish, suyak usti to'qimasi tagida sinish, teshikli sinish.

To'lig'icha sinishlar quyidagilarga bo'linadi: ko'ndalang, qiya, spiral-simon, urib kirgizilgan, parchalangan, majag'langan, maydalangan, urib olingan.

Kelib chiqish sabablari bu - asosan mexanik ta'sirot (lat yeyish, muskullarni keskin qisqarishi, qisilib qolgan oyoqni zo'rlab chiqishi va boshqalar) hisoblanadi. Bundan tashqari ayrim kasalliklarda (avitaminoz, osteomalyasiya, raxit, bo'g'ozlik) suyak tuzilmasini patologik va fiziologik o'zgarishlari shunga moyillik

tug'diradi (M.V. Plaxotin, 1979, A.D. Belov, 1982, Ya.L. Filippov, 1986, V.A. Lukyanovskiy va boshqalar, 1984, P.Modon, 1981).

M.V. Plaxotin (1979) ma'lumotiga ko'ra, yopiq sinishlarga quyidagi klinik belgilar rivojlanadi: og'riq, shish, funksiyasining buzilishi, shikastlangan joyda defigurasiya rivojlanishi, suyakni bo'g'indan tashqari harakatchanligi, suyak krepitasiyasi.

Og'riq paydo bo'lishi ko'pincha suyak va yumshoq to'qimalarning shikastlanish xarakteriga bog'liq bo'ladi. Kuchli og'riq asosan qirrali suyak parchalarining to'qima va muskullarga ta'sir qilganida hosil bo'ladi.

Funksiyaning buzilishi hamma vaqt ham kuzatilmaydi, chunki u sinish xarakteriga va joylashgan joyiga bog'liq.

Defigurasiya asosan sinish turiga va yumshoq to'qimalarning shikastlanish darajasiga bog'liq, bunda bu joyning anatomik shakli yo'qoladi. Bu muskullarning qisqarishi, qon aylanishining buzilishi, sinishning hosil bo'lishiga ko'proq bog'liq. Suyakning bo'g'indan chiqishida haddan tashqari harakatchan bo'lishi asosiy belgi bo'lib hisoblanadi va uni palpasiya o'tkazib aniqlash mumkin.

Hozirgi paytda suyak sinishlarini davolash har xil usullar bilan olib boriladi, asosan bu konservativ va operativ usullar hisoblanadi.

Konservativ usulda asosan davolash taxtakach va gipsli bog'lamlar qo'yib olib boriladi. Veterinariya amaliyotida gipsli bog'lamlarni songa, yelkaga qo'yib bo'lmaydi. Bu uning salbiy tarafi hisoblanadi. Boshqa suyaklar singanda gips bog'lamlarini suyak sinishiga qarab yopiq sinishlarda yopiq usulda, ochiq sinishlarda ikki tabaqali, derazachasimon, bo'g'inlar singanda ko'priksimon usullarda qo'yish mumkin. (L.L. Magda, B.Ya.Itkin va boshqalar, 1992, Ya.L. Filipov, 1986).

Gipsli bog'lamlar katta hayvonlarda 45 kundan keyin, maydalarida 25-30 kundan keyin olib tashlanadi.

M.V. Plaxotin (1974, 1979), V.A. Lukyanovskiy va boshqalar (1984, Ya.L. Filipov (1985); S.S. Tkachenko (1987) larning ma'lumotlariga ko'ra ochiq sinishlarni davolashga katta e'tibor berish lozim. Har bitta ochiq sinishni uning

joylashgan joyiga va yumshoq to'qima shikastlanganligiga, oyoqlarning shikastlanishiga, sinish darajasiga qarab davolash ishlarini olib borish lozim. Ochiq sinishlarda hayot uchun xavfli holatlar ham rivojlanishi mumkin, ayniqsa ko'p qon yo'qotishda va shok rivojlanganda. Shuning uchun ochiq sinishlarda asoratlarning rivojlanishini oldini olishning asosiy yo'li bu – to'liqcha va zudlik bilan o'tkazilgan birlamchi xirurgik ishlov berish hisoblanadi. Faqatgina to'g'ri olib borilgan xirurgik ishlov asosiy maqsadga erishishda yordam beradi.

V.A. Lukyanovskiy, A.D. Belov, L.M. Belyakov (1984) larning ta'kidlashlaricha, operasiya yo'li bilan suyaklarni bir-biriga biriktirish osteosintez deb ataladi. Uni o'tkazishga doir ko'rsatmalar bu – tirsak, tovon, son, yelka, boldir, bilak, kaft suyaklarini ochiq va yopiq sinishlarida o'tkaziladi.

Ularni birlashtirish uchun metallardan yasalgan simlar, spisalar, mixlar, vintlar, plastinkalar, shtiftlar ishlatilishi mumkin.

S.S. Tkachenko (1987) ning ta'kidlashicha, osteosintezning ikki xil usuli mavjud: ichki va tashqi apparatlar yordamida. Ko'pincha ichki osteosintez orasiga intramedulyar va suyak usti osteosintez usuli keng tarqalgan.

S.S. Tkachenko (1987) ning ta'kidlashicha, intramedulyar osteosintez asosan son, boldir va yelka suyaklarida ko'ndalang yoki shunga yaqin bo'lgan sinishlarda qo'llaniladi. Bu turdagi osteosintez uchun zanglamaydigan metallardan yasaldan shtiftlardan, mixlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Intramedulyar osteosintezni yopiq va ochiq usulda olib borish mumkin. Yopiq usulda suyaklarni repozitsiyasi va shtiftni yoki mixni o'tkazish rentgen apparati yordamida bajariladi. Operasiya ochiq usulda olib borilsa singan suyaklarga yo'l ochib boriladi va ular shtift yordamida fiksasiya qilinadi. Bu operatsiyani 3 xil usulda olib borish mumkin: to'g'ridan-to'g'ri, teskari va o'tkazuvchi yordamida.

Oxirgi yillarda plastinkalar yordamida suyak usti osteosintez usulini o'tkazish keng tarqaldi. Plastinkalar kompleksion, bartaraf etuvchi va tayanchli bo'lishi mumkin.

S.S. Tkachenko (1987) ning ta'kidlashiga qaraganda, hozirgi paytda asosan Anixin, Demyanov, Kosilin, Antonov, Komenberza, Sivasha, Tkachenkolar taklif qilgan plastinkalardan foydalanilmoqda.

2.1. Suyakning tuzilishi

Suyakda 50 % gacha suv, 15 % gacha yog', 12 % gacha organik modda – ossein va 21 % gacha mineral moddalar bo'ladi. Organik moddalar suyakka qayishqoqlik, cho'ziluvchanlik, mineral moddalar esa qattiqlik beradi. Buni bilish uchun bir bo'lak suyakni biror kislotaga solsak, tarkibidagi tuzlar erib, suyak egiluvchan bo'lib qoladi, agar kuydirsak ossein kuyib, suyak mo'rt bo'lib qoladi. Suyakning tarkibida bir qancha mineral tuzlar: kalsiy fosfat (85 % gacha), kalsiy karbonat (9% gacha), kalsiy ftorid (3 % gacha), magniy fosfat (1,7 % gacha), xlor tuzlari (0,2 % gacha) va temir tuzlari (0,6 % gacha) bo'ladi.

Suyakning kimyoviy tarkibi hayvonlarning yoshiga qarab o'zgarib boradi. Qari hayvonlar suyagida organik moddalar kamayib, anorganik moddalar ko'payadi. Natijada suyakning tarkibi o'zgarib, suyak mo'rt bo'lib qoladi.

Suyaklar juda mustahkam bo'lib, odamning 1 mm² suyagi 9,25–12,41 kg yuk ko'tara oladi. Son suyagi esa 5607 kg yuk qo'yilganda sinishi mumkin. Suyaklarning tabiiy xossalari ularning kimyoviy tarkibiga, hayvonlarning yoshiga, jinsiga va turiga, suyaklarning tuzilish holatiga bog'liq bo'ladi.

Oyoq suyaklari barcha hayvonlarda oldingi va keyingi oyoq suyaklaridan iborat bo'lib, u hayvon tanasi uchun harakat richagi va tayanch organ hisoblanadi. Oyoq suyaklari yordamida hayvon atrof-muhitda turli–tuman harakatlarni sodir etadi, bu harakatlar yerda, havoda, suvda sodir bo'lishi mumkin.

Hayvonlarda harakat turli shaklda bo'lib, unda periferik skeletning tuzilishi turlicha bo'ladi.

Oyoq suyaklarini har ikkalasi ham o'ziga xos vazifalarni bajaradi, jumladan, oldingi oyoq suyaklari tayanch vazifani bajarib, harakatni boshqarib tursa, keyingi oyoq esa asosiy lokomotor organ bo'lib, tananing oldinga harakat qilishda asosiy lokomotor organ bo'lib xizmat qiladi. Ba'zi hollarda uning aksi ham bo'lishi mumkin.

Oyoq suyaklari o'zlarining tuzilishiga ko'ra ikki qismga bo'linadi:

Kamar suyaklari – skeleton cerculum s. Cingulum bunga oldingi oyoqni yelka kamari, keyingi oyoqni tos kamari suyaklaridan iborat.

Yelka kamari suyaklari – cingulum membri thoracici yelka kamar suyaklari ko'krak qafasiga birlashgan bo'lib o'z navbatida quyidagi uchta suyakdan iborat: kurak suyagi – scapula, o'mrov suyagi – clavícula, karakoid suyagi – coracoideum.

Tos kamari suyaklari – cinogulum membri pelvini. Tos kamar suyaklari tos suyagini hosil qilib, dumg'aza suyagi bilan birikishi natijasida tos (chanoq) ni – pelvis ni hosil qiladi. Tos kamari ikkita nomsiz suyakdan – os coxae iborat bo'lib, har bir nomsiz suyak o'z navbatida quyidagi uchta suyakdan iborat: yonbosh suyagi – os ilium, qo'ymich (o'tirg'ich) suyagi – os ischii, qov – os pubis.

Oyoqning erkin harakat qiladigan suyaklari – skeleton membri libera. Oyoq suyaklarini erkin harakat qiladigan zvenosi tashqi muhit ta'siri, yashash sharoiti va boshqa ekologik faktorlar ta'risida hayvonot dunyosida turli morfologik va anatomik o'zgarishlarga uchradi. Hayvonlarning erkin harakat qiladigan suyaklari o'zlarining anatomik tuzilishi, topografiyasi, ketma-ketligi va bajaradigan vazifalariga ko'ra quyidagicha bo'linadi:

Stelopodiy suyaklari – stylodium (stylo-tik (stolb); podos –oyoq) doimo bitta suyakdan iborat bo'lib, kamar suyaklari bilan birikib turadi. Oldingi oyoqda bu zveno muskullar va teri bilan birgalikda yelka deb nomlanadi, shunga binoan shu zvenodagi suyakga yelka suyagi – os humerus s. vrachii deb nom berilgan. Keyingi oyoqdagi bu zveno muskullar, yumshoq to'qimalar va teri bilan birgalikda son deb nomlanadi, shunga binoan shu zvenodagi suyakga son suyagi – os femoris deb nomlanadi. Shunday qilib, stelopodiy suyaklari yelka va son suyaklariga tafovutlanadi.

Zeygopodiy suyaklari – Zeugopdium (Zengo –juft; podos –oyoq) juft naysimon suyakdan tarkib topgan, oldingi oyoqda bu zveno muskullar, yumshoq to'qimalar va teri bilan birgalikda bilak sohasi deb yuritiladi, u o'z navbatida bilak suyagi – os radi va tirsak suyagi – os ulna dan tarkib topgan, keyingi oyoqdagi zeygopodiy suyaklari muskullar, yumshoq to'qimalar va teri bilan birgalikda boldir

sohasi deb yuritiladi. U o'z navbatida katta boldir – os tibia va kichik boldir – os fibula dan tarkib topgan. Shuni ta'kidlash lozimki, qishloq xo'jalik hayvonlaridan ot, yirik va mayda shoxli hayvonlarda katta boldir suyagi yaxshi rivojlangan bo'lib, kichik boldir suyagi reduksiyaga (yuqolib ketish) uchragan.

Avtopodiy suyaklari – autopodium (auto – harakat mustaqil; podos – oyoq). Oyoq suyaklarini oxirgi zvenosi bo'lib, quruqlikda yuruvchi (to'rt oyoqli) hayvonlarda oldingi oyoqda kaft – manus, keyingi oyoqda oyoq kaft (sakrash bo'g'im suyaklari) – pes (pedes) deb nomlanadi. Avtopodiy suyaklari hayvon harakatida yerga bosib yurishi, suyaklarni ketma–ketligi, joylashishi va soniga ko'ra quyidagi bo'limlarga bo'linadi:

Avtopodiy suyaklarini birinchi (asosiy) qismi bazipodiy (basis – asos) suyaklari deb nomlanadi. Oldingi oyoqda bu bo'lim suyaklariga bilakuzuk suyaklari – ossa carpi mansub bo'lib, u suyaklar o'z navbatida ikki qator suyaklardan tarkib topgan, birinchi qatorda to'rtta, ikkinchi qatorda uchtdan beshtagacha bo'ladi, keyingi oyoqda bu bo'lim suyaklariga tovon suyaklari – ossa tarsi mansub bo'lib, u suyaklar o'z navbatida uch qator suyaklardan tarkib topgan, birinchi qatorida ikkita suyakdan (tovon va oshiq), ikkinchi qatorida bitta, ba'zan ikkita (markaziy) suyakda va uchinchi qatorida uchtdan beshtagacha bo'ladi.

Avtopodiy suyaklarining ikkinchi qismi kaft deb nomlanadi va unga – metapodiy (metapodium – meta – o'rtangi) suyaklari deyiladi. Oldingi oyoqda bu suyaklarga kaft suyagi – ossa metacarpi, keyingi oyoqda – ossa metatarsi deyiladi. Sut emizuvchi hayvonlarda bu qism suyaklarining soni turlicha, ya'ni bittadan beshtagacha bo'ladi.

Avtopodiy suyaklarining uchinchi qismiga akropodiy (acrapodium – across – oxirgi, quyi) suyaklari deb nomlanadi, bu suyaklar tarkibiga barmoq suyaklari kiradi. Barmoq suyaklarining soni ham sut emizuvchi hayvonlarda turlicha bo'ladi. Jumladan, aksariyat holda bittadan beshtagacha, har bir barmoqda birinchi, ikkinchi va uchinchi falang (barmoq) suyaklari farqlanadi.

Oyoqning erkin harakat qiladigan suyaklarini dastlabki ikki zvenosi (stelopodiy va zeygopodiy) suyaklari tanani tik turishi (ushlashi) vazifasini bajarsa,

so'nggi zveno (avtopodiy) suyaklari esa bir nechta turlardan tarkib topgan bo'lib, hayvonlarning harakatida yerga tayanch vazifasini bajaradi.

Hayvonlar avtopodiy suyaklarini yerga bosishga ko'ra, ularning harakat xillari quyidagicha farqlanadi:

Kaft bilan yuruvchilar – bunda avtopodiy suyaklarini barcha zvenolari yerga tegib harakat yuzaga keladi (maymunlar, ayiqlar).

Barmoq bilan yuruvchilar – bunda avtopodiy suyaklarini akrapodiy (barmoq) suyaklari yerga tegib harakat sodir bo'ladi (yirtqichlar, itlar, mushuklar).

Tuyoq bilan yuruvchilar – bunda avtopodiy suyaklarini akrapodiy bo'limidagi uchinchi falang suyagi, ya'ni tuyoq (tuyoqcha) suyagi bilan yuruvchi hayvonlarga mansub bo'ladi. Bu hayvonlarga tuyoqli hayvonlar misol bo'lib ular ayri tuyoqli (juft) va bir tuyoqli hayvonlarga tafovutlanadi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, oyoq suyaklari o'zlarining tuzilishiga binoan turlicha o'zgarishlarga ega.

Oldingi oyoqlar kamari uy hayvonlarida bitta kurak suyagidan iborat bo'lib, qolganlari (o'mrov suyaklari, korakoid suyaklar) yo'qolib ketgan. Oldingi oyoqlarning erkin suyaklariga yelka, tirsak, bilak, bilak uzuk, kaft va barmoq suyaklari kiradi.

Kurak suyagi – scapula uchburchak shakldagi plastinkasimon suyakdir. Bu suyak qovurg'alarining ustki tomonida joylashgan.

Yelka suyagi – os brachii s. Humeras uzun nay shaklida bo'lib, kurak suyagining pastki qismida joylashadi. Bu suyak ham, boshqa suyaklar singari, bir necha qismga: yuqorigi, pastki qismlarga va tanaga bo'linadi.

Bilak va tirsak suyaklari – ossa antibrachii uzun nay shaklida bo'lib, bir-biriga qo'shilgan. Bilak suyagi tirsak suyagining oldingi tomonida joylashadi. Bilak suyagi bilakuzuk suyaklarigacha yetib boradi. Tirsak suyagining yuqorigi qismi yaxshi rivojlangan, pastki tomoni esa anchagina ingichka bo'ladi.

Bilak suyagi – os radius hamma hayvonlarda yaxshi rivojlangan bo'lib, yuqorigi tomonida bo'g'in chuqurchasi bor, u tirsak bo'g'imini hosil qilib, yelka suyagining pastki qismi bilan harakatchan birikadi.

Tirsak suyagi – os ulna hamma hayvonlarda bir xil emas, u bilak suyagiga qaraganda ancha uzun bo'ladi, chunki uning kuchli rivojlangan tirsak o'simtasi – olecranon da bo'rtik – tuber olecrani bo'lib, unga uch boshli yelka muskuli kelib birlashadi.

Bilakuzuk suyaklari – ossa carpi bir qancha mayda suyaklardan hosil bo'lib, bilak, tirsak va kaft suyaklarining o'rtasida ikki qator bo'lib joylashadi. Yuqorigi qatorda to'rtta suyak bor, ular: a) bilakning bilakuzuk suyagi – os capri rodiale bilan suyagining ichki yuzasida; b) oraliq bilakuzuk suyagi – os carpi intermedium bilak va tirsak, bilaguzuk suyaklarining oraliq'ida; v) tirsakning bilakuzuk suyagi – os carpi ulnari tirsak suyagining to'g'risida; g) qo'shimcha bilakuzuk suyagi – os carpi accessorium tirsak bilakuzuk suyagining yon yuzasida joylashadi, bu suyak cho'ziqroq – yumaloq bo'ladi.

Pastki qatorda 3-4 ta suyakcha bo'lib, ular I-II-III-IV-V bilakuzuk suyaklari – os carpi primum, secundum, tertium, quartum, quintum deyiladi.

Kaft suyaklari – ossa metacarpi uzun, nay shaklida bo'lib, sekin-asta rudimentlashmoqda, chunki o'tmishdagi hayvonlarda 5 ta kaft suyagidan hozirgi bir tuyoqlilarda 3 tasi qolgan, ularning ham II-IV lari rudimentlashib bormoqda. III kaft suyagi juda ham yaxshi rivojlangan.

Barmoq suyaklari – ossa digitorium har qaysi barmoqda uch bo'g'imdan iborat bo'ladi. Birinchi barmoq suyagi tushoq, ikkinchisi yumaloq va uchinchisi tuyoqsimon suyak deyiladi.

Tos kamari ikkita nomsiz suyakdan tuzilgan tos (chanoq) – pelvis suyagidan iborat bo'ladi. Tos suyagining har qaysi nomsiz suyagi uchta suyakdan: yonbosh, qov, qo'ymich suyaklaridan iborat. Nomsiz suyaklar bir-biri bilan qov va qo'ymich suyagining o'rtasida birikadi.

Yonbosh suyagi – os ilium keng qanot – ala ossis ilia va tana – corpus ossis ilii dan iborat bo'ladi. Yonbosh suyagining ikkita: tashqi, ya'ni sag'ri - facies glutaea va ichki, ya'ni tos yuzasi bor, yuzada sag'ri muskullari joylashadi.

Qov suyagi– os pubis ning ikkita butog'i bo'lib, ularning biri ko'ndalang butoq, ikkinchisi chok butog'i deyiladi.

Quymich suyagi – os ischii ham qov suyagi singari ikkita butoqdan tuzilgan.

Son suyagi – os femoris uzun nay shaklida bo'lib, yuqori tomondan tos suyagiga birikadi. Boshqa suyaklar singari, son suyagining ham yuqorigi va pastki qismlari bo'ladi.

Tizza qopqog'i - os patella katta kunjutsimon yoki to'piqsimon suyakdan iborat bo'lib, u kalta suyaklarga kiradi.

Boldir skeleti – ossa cruris – katta va kichkina boldir suyaklaridan iborat bo'lib, katta boldir suyagi yaxshi rivojlangan.

Katta boldir suyagi – os tibia uzun nay shaklida, uning yuqorigi qismi anchagina yo'g'on va uch qirrali, past tomoni bir oz ingichkalashgan bo'ladi.

Kichik boldir suyagi – fibula rudimentlashib borayotgan suyak, uning yuqori qismida kichik boshcha – caput fubulae, pastki tomoni bigizsimon, ingichkalashib ketgan bo'ladi.

Tovon suyaklari – ossa tarsi bir qancha mayda va kalta suyakchalardan iborat bo'lib, ular uch qator joylashadi. Birinchi qatorda ikkita – yon tomonda tovon suyagi – os. Tarsi tibialis s. Calcenaus va o'rtada oshiq suyagi – os tarsi tibia s. Talus bo'ladi.

Uchinchi qator uchta, ba'zan to'rtta suyakdan iborat bo'ladi. I – II suyaklar – os tarsi primum et secundum doim bir – biriga qo'shilgan, III tovon suyagi – os tarsi tertium ayrim bo'lib, uchburchak plastinkaga o'xshash bo'ladi.

Oyoq – kaft suyaklari – ossa metatarsi tuzilishi jihatdan xuddi oldingi oyoq-kaft suyaklariga o'xshash, lekin ulardan uzunroq, baquvvatroq va silindr shaklda bo'ladi. Otlarda III kaft suyagi yaxshi rivojlangan, panjali hayvonlarda I va V rivojlangan. II va IV rudimentlashayotgan suyaklardir.

Suyak ichida suyak iligi joylashadi. Suyak organizmda passiv tayanch va harakat organi bo'lib, skelet tartibida murakkab tuzilishga ega va bundan tashqari metabolitik rolni bajaradi. Hayvon skeleti 200 dan ortiq suyaklardan tuzilgan bo'lib, bunday tuzilishi uning funksiyasi va rivojlanishi bilan bog'liqdir. Suyakning asosiy qismini suyak to'qimasi tashkil etadi. Suyakning sirti

biriktiruvchi to'qimadan hosil bo'lgan parda – suyak usti pardasi bilan qoplangan. Ichki naysimon bo'shlig'ida ilik bo'ladi. Suyakda qon tomirlar va nervlar ko'p.

Bajaradigan funksiyasiga qarab, suyaklarning shakli har xil bo'ladi: uzun nay shaklida va egik, qisqa-simmetrik va assimetrik hamda plastinka-simon suyaklarga bo'linadi.

Uzun nay shaklidagi suyaklar asosan oyoqlarning erkin bo'limlarida uchraydi. Ularning o'rtasi kovak bo'ladi, bu ularga yengillik hamda chidam-lilik beradi. Uzun suyaklarning o'rta qismi tanasi, ya'ni diafioz va bo'g'im uchlari, ya'ni epifizlar bo'ladi. Bo'g'im uchlari tanasiga qaraganda yo'g'onroq bo'ladi. Uzun egik suyaklar ko'krak qafasini hosil qilib, himoya vazifasini bajaradi. Ko'krak qafasi ichida yurak va o'pka joylashgan. Nafas olingan va chiqarilgan vaqtda bu suyaklar ko'tarilib tushib, ko'krak qafasining kengayib torayishi harakatini vujudga keltiradi.

Kalta suyaklar xilma-xil bo'lib, simmetrik va assimetrik joylashadi. Umurtqalar simmetrik, kaft usti va kaft oldi suyaklari esa assimetrik suyaklarga kiradi. Bu suyaklar ikki yoki ko'p qator bo'lib joylashadi va har xil funksiyani bajaradi, shu bilan birga amortizasiya rolini ham o'ynaydi. Kalta suyaklarning devori yupqa bo'lib, zich moddadan tuzilgan, uning ichki qismida ko'mik modda ko'p bo'ladi.

Plastinkasimon, ya'ni yassi suyaklar asosan har xil kovaklar hosil qilishda ishtirok etadi. Kalla suyagidagi peshona, yuqori jag' suyaklari va boshqalar yassi suyaklarga kiradi.

Suyak kesib qaralganda unda qattiq va g'ovak moddalar ko'rinadi. Qattiq, ya'ni kompakt modda suyakning tashqi yuzasida, suyak pardasining ostida joylashgan. Bu modda naysimon suyaklarda yaxshi rivojlangan.

G'ovak modda naysimon suyaklarning uchida, qisqa va kalta suyaklarning ichki qismida uchraydi, yassi suyaklarda g'ovak modda kam bo'ladi yoki butunlay bo'lmaydi. Suyak bo'shlig'idagi g'ovak moddalarda bir nechta xovon bo'ladi. Bular amortizasiya vazifasini bajaradi, yuk bosimi tomonga qarab joylashadi. Katta

yoshli hayvonlarda naysimon uzun suyaklardagi bo'shliqlar sariq ilik bilan to'lgan bo'lib, u parozapas oziq modda bo'lib hisoblanadi.

Uzun va kalta suyaklarning g'ovak moddasida qizil ilik bo'ladi, u qon hosil qilishda ishtirok etadi. O'sayotgan yosh organizm suyaklarida faqat qizil ilik bo'ladi. Har bir suyak qon tomirlar bilan bog'langan, suyak parda-sidagi folkman kanalchalari orqali atrofdagi yumshoq to'qimalardan suyak ichiga tarqaladi. Bundan tashqari suyak ichiga yirik arteriya qon tomiri kirib ilikni oziq moddalar bilan ta'minlaydi.

Venoz qon bir qancha mayda vena tomirlari orqali suyak to'qimasi va ilikdan kelib chiqadi. Qon tomirlar yuza va ichki qismlarga bo'linadi. Birinchisi periost anemiyada hosil bo'ladi, ikkinchi suyak ichi bo'shliqlarida oziqlantiruvchi atrofiyalar hisobidan hosil bo'ladi.

2.2. Suyaklar shaklini o'zgarishi

Suyaklarning bajaradigan funksiyasining kuchayishi natijasida shakli o'zgaradi. Funksional kuchayishi bilan ularning hajmi kattalashadi, kamayishi bilan esa qisqaradi. Bunday o'zgarishlar umurtqa pog'onasida yaqqol ko'rinadi. Suyaklar shaklining o'zgarishida hayvonning nasli, muskul va paylarning kuchli oziqlanishi, suyaklarning joylashuvi, qon va nerv tomirlarning bog'lanishi muhim rol o'ynaydi.

Bo'g'imlardagi har xil do'nglik hamda chuqurlar muskul va paylarni ushlash uchun xizmat qiladi.

Suyaklarning joylashishi ular shaklining o'zgarishiga katta ta'sir qiladi. Masalan, odamlar tik yurishi sababli ularning umurtqa pog'onasi suyaklarining bir-biriga birikishi natijasida kalta, to'rt oyoqli hayvon-larda esa uzun bo'ladi.

Shunday qilib, suyaklar shaklining o'zgarishiga tashqi va ichki sharoit ta'sir qiladi. Natijada suyaklar har xil (uzun, kalta va yassi) bo'lib qoladi. Suyaklarda kam harakat bo'lsa (masalan, bosh suyaklari), ular bir-biriga yaqin qo'shiladi. Ularga oziq moddalar va tuzlar yetarli kelib tursa, suyaklar normal o'sadi, bunday holat buzilsa suyaklarning shakli o'zgaradi.

Hamma suyaklar zich biriktiruvchi to'qimadan iborat suyak pardasi bilan qoplangan. Bunday parda tog'ay to'qimalar ustida bo'lmaydi. Suyak pardasida maxsus hujayralar – suyak hosil qiluvchi osteoblastlar bor. Ular o'sadigan suyakda bir qator joylashadi.

Osteoblastlar sintez qilinadigan oqsil hujayralararo moddaga yo'naladi. Ularning ko'payishi natijasida osteoblastlar osteositlarga aylanadi.

Osteoblastlar suyaklarning o'sishida, singan joylarning bitib qotishida muhim rol o'ynaydi.

Qon tomirlari suyaklarga oziq moddalar yetkazib beradi. Singan suyaklarning bitishi organizmda mahalliy va umumiy o'zgarishlarga olib keladi.

Sinishdan so'ng suyak to'qimasi chandiq hosil qilib bitadi.

Regenerasiya jarayonida ichki kombinal qatlam, endost, suyak iligi, gavers kanallari biriktiruvchi to'qima qatnashadi.

A.D. Belov, (1996), A.A. Voronsov (2004), N. M. Rodzidues (1980) lar-ning tekshirishlariga ko'ra suyak chandig'i quyidagilardan tashkil topgan: periostal yoki tashqi suyak chandig'i, suyak usti pardasining kombinal qatlamidagi hujayralardan. Endostal yoki ichki chandiq endost hujayra-laridan va ilikdan hosil bo'lgan. Oraliq chandiq – suyakni gavers qatlami va endost, periost hujayralaridan hosil bo'lgan. Pariostal yoki suyak oldi chandiq singan suyak atrofidagi yumshoq to'qimalardan hosil bo'lgan.

Chandiq hosil bo'lish jarayonida quyidagi bosqichlar kuzatiladi:

Birinchi bosqichda – tayyorgarlik 48-72 soat ichida shikastlanishga qarshi seroz aseptik yallig'lanish rivojlanadi, to'qimalarda ekssudasiya va leykositlarning emigrasiyasi kuzatiladi.

Shu bilan bir vaqtda singan suyak uchlarida travmatik ostid rivojlanadi. Osteoplastlar va ularning fermentlari ta'sirida singan suyaklar uchlari demineralizasiyaga uchraydi.

Ikkinchi bosqich – shikastlanishdan keyin 3 kun ichida biriktiruvchi to'qimadan chandiq hosil bo'ladi. Boshida suyak endosti va suyak iligidan suyak

usti to'qimasidagi hujayra elementlarida osteoid to'qima hosil bo'ladi, singan joydan sal pastroq shikastni intakot zonasida asta-sekin sinish tomonga yo'naladi.

Shu bilan birgalikda suyak usti to'qimasi, ilik va endostning kombinal qatlamidagi osteogen hujayralar singan joydagi ivigan qon tarafga yo'naladi va asta-sekin ko'payib, mayda kapillarlar qon tomirlar to'rini hosil qiladi. Suyaklar singan uchlarida o'ziga xos granulasyon to'qimasi rivojlanadi, u biriktiruvchi to'qima chandig'ini hosil qiladi, undagi hujayra elementlari differensasiya yo'li bilan osteoblast va suyak hujayralariga, organik modda – kollegen tolalari – substansiya oqsilga aylanadi.

Bu bosqich uchun ishqorli fosfataza aktivligi va fosfor kalsiy intensivligi xarakterli bo'lib, qon zardobida fosfor kalsiy miqdori ko'payadi, ishqorli fosfatoza va fosfor kalsiy tuzlariga ega bo'lgan oqsillar aktivligi oshadi.

Uchinchi bosqich 10-12 kun o'tgach suyak chandig'i hosil bo'ladi, u suyaklashish jarayoni bilan xarakterlanadi. Osteoid to'qima uchun ossifikasiya jarayoni xos. Bunda asosiy rolni osteoblastlar o'ynaydi. Ishqorli fosfatoza va ko'mir kislotasini ishlab chiqarishi bilan hosil bo'lgan suyak to'qimasi fiziologik to'g'ri tuzilmagan. Asta-sekin harakat va og'irlik ta'sirida u statiko-dinamika o'zgarishiga uchraydi.

To'rtinchi bosqich – bunda suyak chandig'i tuzilmasidagi hujayralar statiko-dinamika qonunlari ta'sirida batamom o'z holiga keladi. Bu jarayon uzoq muddat davom etadi. Chandiqdagi suyak bolloslari statiko-dinamika og'irligi ta'sirida so'rilib normal suyak holatiga yaqinlashadi. Organizm-dagi biologik ko'rsatgichlar 5-8 oy ichida asta-sekin o'z holatiga keladi.

Singan suyaklarning bitishi har xil hayvonlarda har xilcha kechadi: ot va itlar suyagi singandan keyin oyog'ini juda asraydi, agar singan joyida suyak chandig'i hosil bo'lmasa, ular bu oyoqqa tayanmaydi. Bu hayvonlarda singan joyida seroz yallig'lanish, shish rivojlanadi. Biriktiruvchi to'qima chandig'i 10-15 kunga borib hosil bo'ladi. Singan joy to'lig'icha 35-45 kunga borib bitadi. Yirik shoxli hayvonlar va cho'chqalarda suyagi singandan keyin 3-5 kun ichida oyog'ini asraydi, keyinchalik tayanib harakat qila boshlaydi. Sinish hosil bo'lishi

chegaranadi, biriktiruvchi to'qima chandig'i 8-10 kunda hosil bo'ladi. To'liqcha suyaklar 25-35 kunga borib bitadi.

Sinishlarda asoratlar ham rivojlanishi mumkin. Eng asosiysi va xavfli bu osteomiyelit bo'lib, u ochiq va o'q tekkan sinishlarda rivojlanadi, kontraktura va soxta bo'g'im hosil bo'ladi. Oxirgisida singan joyda noto'g'ri harakat hosil bo'ladi, chandiq hosil bo'lish jarayonining buzilishi natijasida kelib chiqadi. Hozirgi paytda kliniko-rentgenologik, gematologik, biologik, gistologik, radiasion va boshqa tekshirish usullari yordamida shikastlanishlardan keyin organizmda sezilarli o'zgarishlar namoyon bo'ladi. Buning natijasida mahalliy va umumiy o'zgarishlar hosil bo'ladi, qonning bioximik modda almashinuvi buziladi.

Naysimon suyaklarning sinishida 10 kun ichida organizm va singan joyda kuchli o'zgarishlar namoyon bo'ladi. Bunda klinik, bioximik, gisto-logik o'zgarishlar namoyon bo'ladi. Singandan keyin va osteosintez qilgandan keyin hayvonning ishtahasi pasayadi, umumiy harorati ko'tarilgan, pulsi, nafas olishi tezlashgan bo'ladi, singan joyda yallig'lanish jarayoni rivojlanadi.

5-10 sutkaga borib ancha o'zgarishlar kuzatiladi, umumiy oqsil, albumin-globulin koefitsiyent miqdori pasayishi va qonda noorganik miqdorini ko'payishi kuzatiladi.

Bu davrda noorganik fosforning miqdori suyaklarning uchlarida kamayishi aniqlanadi, bu mahalliy asidoz, kislotali fosfatozani kuchayishi, osteoblastlarning aktivligini oshishi, yallig'langan reaksiya muhiti kuzatiladi.

Bu holatni V.M. Vasyutochkin, M. Bruseva, P.Altshuler, M.N. Pogorelov, M.V. Plaxotin va A.D. Belov, Moxammed-Al-Mustafa, Z.M. Zelenskaya, A.A. Abramova (2004), V.V. Annikov (2004), S.A. Yerofeyev (2004) lar tasdiqladilar. Shu narsa aniqlandiki, suyaklarning sinishidan so'ng qonning faol reaksiyasi asidoz tarafga siljiydi, keyinchalik o'tkir bosqichda kechishi susayganda yumshoq to'qimalardagi yallig'lanish shishining yo'qolishi, reaksiya jarayonini ustunligi va suyak chandig'ining hosil bo'lishi, qonning faol reaksiyasini va to'qimalar muhitini asta-sekin alkaloz tarafga burilishi aniqlanadi.

10-25 chi kunlarga borib o'tkir kechuvchi reaksiyalar asta-sekin tinchiydi, rentgenogrammada suyaklar chandig'ining hosil bo'lishi yaqqol ko'rinib turadi. Umumiy oqsil miqdorining normaga yaqin bo'lishi, lekin albumin va albumin-globulin miqdori pastki ko'rsatkichlarda qoladi.

25 sutkaning oxirida suyakning proksimal va distal uchlarining bir-biriga yopishishi rentgenogrammada chiziladi.

Radioizotop usul bilan tekshirish o'tkazilganda, shu narsa aniq-landiki, suyak chandig'ining hosil bo'lishida oqsil almashinuvini maksimal intensivligi 15-chi sutkaga, mineral almashinuvi esa 25 kunga borib aniqlanadi. Shu davrda, oxiriga borib suyakning singan uchlari to'liqcha birlashgan va oyoqning tayanch funksiyasi to'liqcha tiklanadi (A.D. Belov (1984); A.A. Voronsov (2004).

Demak, suyak singandan va osteosintez operatsiyasini o'tkazgandan keyin 10-25 chi kunlar orasida o'tkir kechuvchi reaksiyalar susayib, singan joyda regenerasiya jarayonlari kuchayishi aniqlandi. Bu davr ishqorli fosfataza fermentining aktivligi, oqsil va mineral almashinuvining kuchayishi bilan xarakterlanadi, bu esa suyak chandig'ini hosil bo'lishiga ta'sir qiladi.

Ko'pchilik olimlar shuni ta'kidlashadiki, asidoz muhitida rarefi-kasiya va rekristalizasiya jarayoni suyakda ustun turadi, lekin mo'tadil alkalozda kondensasiya va kristalizasiya kuzatiladi (T. Saeki, 1980; M.D. Lokai, T. Ford 1981; S.A. Yerofeyev, 2004).

Singan suyaklarning uchlarida mineral almashinuvi darajasining pasayishi va qondagi mineral moddalar miqdorining ko'payishi, singandan keyin birinchi davrda mineral suyak to'qimasidan so'rilib qonga o'tishi bilan bog'liq bo'ladi.

10 sutkaga borib oqsil-mineral almashinuvini intensiv ko'payishi singan suyaklarda suyak hosil qiluvchi elementlar bilan bog'liq, gipo-protenemiyaning o'sishi fonida alfa va beta-globulinlarning biosintezi-ni oshishi bilan bog'liq, lekin shu bilan birga ularning parchalanishi albuminlar darajasining pasayishiga olib keladi. Gamma globulinlar-ning biosintezi ularni parchalanishidan ustun turadi, shuning uchun qon zardobidagi gamma-globulinlarning miqdori boshlang'ichdan

yuqori turadi. Bu muddatda rentgenologik tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, singan joydan yuqoriroqda oqimshil-kulrang peristal hujayralar to'plami aniqlanadi.

3. Xususiy tadqiqotlar

3.1. Materiallarni tekshirish uslublari

Tajribalar Samarqand qishloq xo'jalik instituti Hayvonlar anatomiyasi, fiziologiyasi, jarroxlik va farmakologiya kafedrasida klinikasida bajarildi.

Material sifatida shikastlanish natijasida oyoqning bilak va boldir suyaklari singan itlardan foydalanildi.

Jadvalda ko'rsatilganidek, suyak sinishlarini har xil usullar yordamida kasal hayvonlarda olib borildi. Har xil suyaklarning sinishi bo'yicha ular quyidagicha taqsimlandi:

Jadval № 1

T/r	Sinish turlari	Sinishlar soni
1.	Bilak suyagi	4
2.	Boldir suyagi	3

Tajribalarni o'tkazish jarayonida bizlar quyidagi usullardan foydalandik:

Anamnez (anamnesis) – Hayvon egasi yoki hayvonga qarovchi shaxs bilan o'tkazilgan savol-javobdan kasal hayvon to'g'risida yig'ilgan ma'lumotlar majmuasiga anamnez deb yuritiladi. Anamnez ikki qismdan iborat bo'ladi:

1. Kasal hayvonning hayoti to'g'risidagi anamnez.
2. Kasallikning kelib chiqish tarixiga oid anamnez.

Kasal hayvonning hayoti to'g'risidagi anamnezni o'rganish, hayvonning qanday sharoitda kasal bo'lib qolganligini aniqlashga imkon yaratadi. Anamnezning bu qismida qo'yidagi savollarga javob topish kerak:

- a) mazkur xo'jalikda hayvonning qachondan beri yashab kelayotganligi (agar sotib olingan bo'lsa qachon sotib olinganligini);
- b) hayvon saqlanadigan joyning holati va uning qayerda boqilishi;
- v) hayvonning boqilish sharoitlari, ya'ni yem-xashak miqdori va sifati;
- g) hayvon mahsuldorligi va undan foydalanish va hokazolar.

Kasallikning kelib chiqish tarixiga oid anamnezni o'rganish, ushbu kasallikning kelib chiqishiga taaluqli ma'lumotlarni aniqlashga imkon yaratadi. Bu qo'yidagi savollarni o'z ichiga oladi:

a) kasallikning qachon aniqlanganligi va u qanday paydo bo'lgani, ya'ni birdanigami yoki asta-sekinlik bilan vujudga kelganligi. Bunda kasallikning kechishi (o'tkir yoki surunkali) va shu bilan birga qaysi organlar shikastlanganligi aniqlanadi.

B) kasallik qayerda va qanday sharoitda vujudga kelganligi.

Kasal hayvonda klinik belgilardan cho'loqlanish, ko'rish qobiliyatining qisman pasayishi, buyinning qiyshayishi va boshqalar bo'lib, to'qimalarda tashqi shikastlanish belgilari bo'lmaganda kasallikning qayerda va qanday sharoitda vujudga kelganligini bilish juda muhim hisoblanadi. Har qanday aniq sharoitda ham xirurgik tekshirish usullarini qo'llash talab qilinadi. Ayrim hollarda kasal hayvonning yuqumli va yuqumsiz kasallik-lar bilan kasallanmaganligini yoki zaharli moddalar bilan zaharlanmagan-ligini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki yuqoridagi kasalliklar oqibatida turli xirurgik kasalliklar: tuyoqning revmatik yallig'lanishi, tendinit, tendovaginit, bursit, artritis va boshqalar kelib chiqishi mumkin.

V) kasal hayvon shifoxonaga (klinikaga) keltirilganiga qadar qanday davolanganligi, davolash uchun nima qo'llanilganligi va kim davolagan-ligini bilish kelgusida davolash usullarini ishlab chiqish uchun muhim ahamiyatga ega.

Albatta anamnez uchun to'plangan ma'lumotlar hamma vaqt to'g'ri bo'lavermaydi, bu ko'pincha hayvonni olib kelgan odamning kasallik to'g'risida yaxshi tushunchaga ega bo'lmasligi, ba'zan esa kasallikni qasddan yashirishi bunga sabab bo'ladi.

Shunday qilib, anamnez hayvonni tekshirishdan oldingi holatini xarakterlovchi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Anamnez to'g'risida obyektiv fikr yuritish uchun anamnezni klinik tekshirishda olingan ma'lumotlar bilan solishtirib ko'ra bilish juda muhim. Hayvonni boquvchi xodim bilan o'tkazilgan suhbatda, olingan hamma

ma'lumotlarning aniqligini tekshirib ko'rish kerak. Buning uchun anamnez ma'lumotlariga tanqidiy nuqtai nazardan qarab, kasallikni aniqlashda klinik tekshirish natijalariga ko'proq tayanish maqsadga muvofiqdir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, anamnezga doir ma'lumotlar to'la-to'kis olingan bo'lishi kerak. Bekamu-kust to'plangan anamnez, kasal hayvonga diagnoz qo'yishda anchagina yordam beradi davolash va oldini olish chora-tadbirlarini muvaffaqiyat bilan tashkil etishni osonlashtiradi.

Umumiy tekshirish. Kasal hayvonlarni umumiy tekshirish, ularga diagnoz qo'yishda muhim ahamiyatga ega. Ayrim hollarda umumiy tekshirish usullari orqali, sirtidan ko'zdan kechirish yo'li bilan kasal hayvonni osongina payqash va kasallik belgilarini topish mumkin.

Umumiy tekshirish gabbitusni aniqlash, hayvonning terisi, limfa tugunlari, shilliq pardalarini tekshirib ko'rish va haroratini o'lchashdan iborat. Bundan tashqari umumiy tekshirishlarda hayvonning zoti, jinsi, yoshi, hayvon holati, vazni va uning xo'jalik bahosi ham e'tiborga olinishi kerak.

Hayvonlarning turli zotlarida xirurgik kasalliklar turlicha namoyon bo'lishi mumkin. Bug'oz hayvonlarda diagnostik tekshirish usullari, juda ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi kerak. Hayvonlarning ayrim kasalliklari ularning nasliga va tusiga bog'liqligi tasdiqlangan. Hayvonlarning yoshi kasalliklarni aniqlashda, kasallik oqibatini oldindan ayta bilishda va davolashda katta ahamiyat kasb etadi. Karsinoma, katarakt (ko'zining parda bilan qoplanishi), yumshoq tog'aylarning suyaklashuvi asosan ko'proq qari hayvonlarda uchraydi. Yosh hayvonlarga narkoz qari hayvonlarga qaraganda tez ta'sir qiladi, shu bilan birga yosh hayvonlar operatsiyalarni yaxshi ko'tara oladi.

Dori, narkotik va og'riqsizlantiruvchi moddalarning miqdorini belgilashda hayvonning tana og'irligi muhim ahamiyatga ega.

Katta vaznli hayvonlarda bir qator kasalliklarning, xuddi shu turga mansub bo'lgan kichik vaznli hayvonlarga qaraganda tuzalish ehtimoli (proгноzi) kamroq bo'ladi. Hayvonni klinik tekshirishda hamma vaqt uning umumiy holatiga, ya'ni semiz-oriqligiga, temperamentiga (xulq-atvori), tana tuzilishiga, tanasining

fazodagi vaziyatiga, konstitusiyasiga e'tibor berish kerak. O'rtadan yuqori semizlikdagi mustahkam konstitusiyali hayvonlarda, jarohatning bitishi va boshqa jarayonlar yaxshi kechishi kuzatiladi. Uzoq vaqt davolashga to'g'ri keladigan qari va mahsuldorligi past bo'lgan hayvonlar, sarf qilingan xarajatlarni qoplay olmaydi va ular go'shtga topshiriladi.

Ko'rish (inspectio). Anamnez ma'lumotlari yig'ilganidan so'ng hayvonni umumiy klinik tekshirish, qaysiki ko'zdan kechirish boshlanadi. Ko'rik kunduzi tabiiy yoki sun'iy yorug'likdan foydalanib o'tkaziladi. Bu ish muayyan tartibda o'tkaziladi, avval hayvonning boshi, bo'yni, so'ngra ko'krak qafasi, tana qismi, qorni, yelini, yorg'oq, prepusiya, chanog'i, oyoqlari qarab chiqiladi. Tananing juft qismlari taqqoslab ko'zdan kechiriladi, bu patologik uchoqda tashqi klinik belgilar kamroq kuzatilganda asqotadi. Hayvon harakatlenganda va tinch turgan holatida ko'zdan kechiriladi. Uning holatiga (holsizlanish, qo'zg'alish), tana vaziyati, teri va shilliq pardalar ko'rinishiga va boshqa ayrim bir organ kasalliklaridan xabar beruvchi (oqsash, ko'rish qobiliyatining yo'qolishi) yoki mahalliy o'zgarishlarga (dermatit, ekzema, o'sma, ko'z shox pardasining xiralashishi, qalinlashishi) e'tibor berish kerak.

Ko'rik asosida zararlangan organ yoki shikastlangan tuqimaning o'lchami, shakli, rangi va yuzasining holati (quruq, ho'l, tekis, g'adir-budir, qon bilan qoplanganligi, yiring, qora-qutir) oqsash (uning turlari) va boshqalar aniqlanadi.

Kasal hayvonlar diqqat bilan kuzatilsa, kasallikning kechishi va klinik manzarasini bilib olish hamda diagnoz qo'yish va samarali davolash vositalarini belgilash mumkin bo'ladi.

Palpasiya (palpatio) – qo'l bilan paypaslab ko'rish. Bu usul yordamida mahalliy harorat, og'riq reaksiyasi, patologik o'choqning joylashgan joyi, uning harakatchanligi va tarangligi, teri va teri osti kletchatkasining holati, arteriya pulsini, suyuqlikning sho'lqillashi, g'ijirlash va boshqa klinik belgilar aniqlanadi. Bunda patologik o'choqdagi haqiqiy og'riqni, suyak va paylardagi fiziologik reflekslardan ajrata bilishni o'rganish lozim, aks holda uni og'riq reaksiyasi deb adashish mumkin. Mabodo adashilsa juft organlar taqqoslanib tekshiriladi.

3.2. Suyak sinishlarining klinik belgilari

Suyak sinishlari deb, biron–bir ta’sir natijasida suyak anatomik butunligining qisman yoki to’liq buzilishi va atrofdagi yumshok to’qimalarning shikastlanishiga aytiladi. Suyak sinishlari kelib chiqish vaqti bo’yicha tug’ma va ortirilgan, travmatik, patologik (o’z–o’zidan kelib chiqadigan) bo’ladi.

1. Buzilish xarakteri bo’yicha ochiq, yopiq va ko’p sonli;
2. Joylashishi bo’yicha – yassi suyaklar sinishi va naysimon suyaklar sinishi;
3. Anatomik harakteri bo’yicha – epifizar, diafizar, metafizar, epifiz diafizdan ajralgan;
4. Buzilish xarakteri bo’yicha – to’liq va qisman sinishlar bo’ladi.

Oyoq suyaklari singan vaqtda uning funksiyasi buziladi, oqsaydi. Singan suyak uchlari, muskullarning qisqarishi va statik apparatlarning buzilishi oqibatida nerv reseptorlari qitiqlanib kuchli og’riq yuzaga keladi.

Singan suyak uchlarining joylari siljishi yoki to’qimalarga kuchli qon quyulishi natijasida deformasiya yuzaga keladi. Sog’lom oyoq bilan solishtirib ko’rganda singan oyoqning notabiiy shaklda ekanligi va singan joyda deformasiya kuzatiladi.

To’liq singan suyakning xarakterli klinik belgisi uning singan joyidagi harakatchanligidir. Buni aniqlash uchun bir qo’l bilan singan joyning ustidan, ikkinchi qo’l bilan distal qismidan ushlab tomonlarga harakat qildiriladi. Singan joyni harakatlantirganda suyak g’ijirlashi (krepitasiya) aniqlanadi. Singan oyoqni tekshirganda hayvon kuchli og’riq sezadi va bezovtalanadi. Yumshoq to’qimalarga qon quyulishi, limfa va qon aylanishining buzilishi oqibatida shish paydo bo’ladi.

Клиник белгилари:

1. Оғриқ
2. Функцияларнинг бузилиши
3. Дефигурация
4. Бўғимдан ташқари ҳаракат
5. Крепитация

Diagnoz. Klinik belgilar va differensial diagnoz ma'lumotlariga aslanib qo'yiladi. Asosan, yorilishdan differensasiya qilinadi, bunda klinik belgilar kamroq namoyon bo'ladi, singan joyda harakat va g'ijirlash kuzatilmaydi. Oxirgi diagnoz singan joyni rentgenografiya qilib qo'yiladi.

Kasallikning oqibati hayvonning yoshiga, turiga, suyak va to'qimalar-ning shikastlanishiga, singan vaqtiga, sinish turiga bog'liq bo'ladi va singan shakli hisobga olinadi.

Qisman sinishlar:

1. Yoriqlar – teshib o'tuvchi, yuzaki, bir sonli va ko'p sonli.
2. Suyakning ajralmasdan bir qismining sinishi.
3. Suyakning bo'laklanib sinishi, asosan suyaklar chetida kuzatiladi.
4. Suyak pardasi ostida sinishlar.
5. Teshiklar.

To'liq sinishlar: yo'nalishi bo'yicha – ko'ndalang, qiyshiq, uzunasiga, spiral shaklda, tishsimon bo'ladi. Suyak to'qimasining zararlanishi bo'yicha – qoqilgan, parchalangan, ezilgan, uzilgan, o'q tekkan bo'ladi.

Yopik sinishlarda og'riq, oyoqlar faoliyatining buzilishi, defigurasiya (shakl o'zgarishi), suyaklarning bo'g'imdan tashkari harakati, suyak krepatasiyasi kuzatiladi.

Qisman sinishlarda og'riq va faoliyatning buzilishi uncha bilin-maydi.

Ochiq sinishlarda qon ketishi, og'riq, yumshok to'qimalarning shikastlanishi va boshkalar kuzatiladi.

Suyak sinishlarining bitishi singan suyakning butunligi suyak qadog'i hosil bo'lishi bilan tiklanadi.


Regenerasiyaning asosiy manbalari:

1. Suyak pardasining ichki kambial qavati.
2. Endost.
3. Suyak iligi.
4. Gavers kanallari tomirlarining endoteliyi.
5. Suyakga aylanuvchi yosh biriktiruvchi to'qima.

Birlamchi suyak qadog'i kuyidagilardan tashkil topgan:.

1. Periostal qadoq.
2. Endostal qadoq.
3. Oraliq qadoq.
4. Paraossal yoki suyak yonidagi qadoq.

Cuyak sinishlari turli omillar natijasida yumshoq to'qimalarning shikastlanishi bilan birga kechadi. Bu omillarga urilish, yiqilish, toyish, keskin yoki to'satdan muskullarning qisqarishi va otilish kiradi. Bundan tashqari, suyak sinishlarini keltirib chiqarishga moil omillardan raxit, osteomalyasiya, osteodistrofiya, gipovitaminoz, suyaklarning mahalliy kasal-liklari nekroz, kariyes, osteosarkoma va boshqalar bo'lib, qaysikim bu omillar suyaklar qattiqligini yo'qotadi va ular kuchsiz ta'surotlarda ham sinadi. Suyak sinishlarida muskullar va kapsulalar yiriladi, qon va nerv tomirlari uziladi.



Suyak sinishlari kelib chiqishi ikkiga bo'linadi: tug'ma va orttirilgan.

Tug'ma, ya'ni qorin tomonidan beriladigan kuchli ta'surotlar tufayli yoki bachadonning kuchli qisqarishlari natijasida kelib chiqadi. Bunga yordam beruvchi omillar ya'ni homilaning rivojlanish davridagi yetishmovchiliklar osteomalyasiya, raxit va boshqalar.

Orttirilgan suyak sinishlari tug'ish jarayonida va postnatal bo'lib, bunga travmatik, patologik, o'z-o'zidan va fiziologik bo'lishi mumkin (qarilik osteoparezi, bug'ozlik, ko'p sut berish va noto'g'ri oziqlanish).

Suyak sinishlari xarakteriga qarab ochiq va yopiq bo'lib, ochiq suyak sinishlari ancha xavfli. Bir vaqtning o'zida bir necha suyaklarning sinishi ko'p suyak sinishlari deyiladi.

Sinishlar joylashishiga qarab yassi, naysimon va yumaloq suyaklar sinishlariga bo'linadi. Naysimon suyaklarda sinishlar epifizar, diafizar va metafizar deb farqlanadi. Suyaklar sinish darajasiga qarab to'liq va to'liqsiz bo'ladi.

Suyak sinishlar mayda hayvonlarda keng tarqalgan patologiya bo'lib hisoblanadi. Itlarda suyak sinishlari asosan tashqi muhitdan kuchli mexanik ta'surotdan kelib chiqadi. Singan suyaklarni davolash ancha murakkab bo'lib, hamma vaqt ham kutiladigan natijani olish imkoniyati bo'lmaydi. Shuning uchun singan suyaklarni davolaganda quyidagilarga e'tibor berish lozim: qaysi suyak singan, sinish turi (ochiq, yopiq), hayvonning ahvoli, klinik belgilari. Itlarni singan suyaklarini davolash ikki xil usul bilan olib boriladi: konservativ va xirurgik. Konservativ usulda asosan shikali va gipsli bog'lamlardan foydalaniladi. Gipsli bog'lamlarni qo'yish vaqtida uni afzallik va kamchilik tarafini inobatga olish kerak.

Gipsli bog'lamlarning afzalliklari:

1. Immobilizasiya uchun ishlatiladigan boshqa narsalardan gips sezilarli arzon.

2. Gipsli bog'lamlar issiqni yaxshi o'tkazadi. Uni paypaslaganda ayrim joylarda issiqlik ko'tarilganini aniqlash mumkin. Bu yumshoq to'qimalarda yallig'lanish boshlanganligi to'g'risida ma'lumot olsa bo'ladi.

3. Gips gigroskopik, namlikni o'ziga yaxshi tortib oladi. Agar operatsiyadan keyin yoki shikastlanish natijasida jarohatdan ekssudat ajratilsa, u gipsga yaxshi so'riladi va bog'lamda dog' sifatida ko'rinadi.

Gipsli bog'lamlarning kamchiliklari:

1. Gipsli bog'lamning kamchiliklaridan biri uning hajmi.
2. Gipsli bog'lamni yana bir kamchiligi bu ning gigroskopligi. Gips namlikdan qo'rqadi, chunki uning ta'sirida parchalanadi.
3. Issiqni o'tkazishi bilan bir qatorda u past haroratni ham o'tkazadi.
4. Vaqti o'tib gips eskirib, ushalib ketadi.
5. Gipsli bog'lamning tagida terini o'zgarishi seziladi.
6. Qattiq qo'yilgan bog'lamda shish hosil bo'ladi, kuchsiz qo'yilgan bog'lam shish kamaysa tushib ketadi.
7. Qon aylanishining buzilishi natijasida gipsli bog'lam qo'yilgan joyda muskullarni atrofiyaga uchrashini, pay va bo'g'imlar kontrakturasini rivojlanganligini aniqlash mumkin.

3.3. Bog'lamlarning tasniflanishi va ularni qo'yish texnikasi

Bog'lamlar bajariladigan vazifalariga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

Birinchi yordam ko'rsatish bog'lami – jarohatlarni qaytadan shikastlanish va ikkilamchi infeksiya tushishidan himoya qilishda xizmat qiladi. Jarohatni dokali salfetka yordamida yopib, palaxmonsimon qiyiqcha yoki dokali bog'lam orqali fiksasiyalanadi.

O'tkazmaydigan bog'lam (okklyuzion) – ko'krak yoki qoringa kirib boruvchi jarohatlarga qo'yilib, zarur bo'lganda anatomik bo'shliqlarga havo, mikroflora, chang zarrachalari va boshqa yot tanachalar kirib qolishining oldi olinadi. Buning uchun bog'lamning birinchi qavatiga dokali salfetkaning yog'li emulsiyaga to'yintirib yara yopiladi. Salfetka ustiga gigroskopik paxta qavati, so'ngra havo o'tkazmaydigan (kliyonka, sellofan, pergament qog'oz) to'qimalar yelimlab qo'yiladi.

Quruq so'rib oluvchi bog'am – bog'lovchi materiallarning jarohatdan ajralayotgan ekssudatlarni so'rib olishiga asoslanib, to'xtovsiz ravishda jarohat

ekssudatini mikrofloralar va to'qimalar parchalanishidan hosil bo'lgan chiqindi moddalarni chiqarib tashlaydi. Bog'lam uch qavatli bo'lib, jarohatning birinchi bitish davrida qo'llash ko'zda tutiladi. Birinchi qavat so'rib oluvchi, jarohat bo'shlig'ini yengil to'ldirilgan dokali salfetka yoki dokali tampon bo'lib, jarohat suyuqligini yengil so'rib olib, keyingi qatlamga o'tkazadi. Ikkinchi qatlam qabul qiluvchi, gigroskopik paxta bo'lib, uning qalinligi jarohatdan ajralayotgan suyuqlikga bog'liq bo'ladi. Yumshoq holda bir santimetrdan oshmasligi kerak. Paxta suyuqlikni birinchi qatlamdan so'rib olib, keyingi qatlamga o'tkazadi. Uchinchi (ustki) qatlam bug'lantiruvchi, tagida yotgan qatlamlarni kerakli vaziyatda ushlab turish va so'rib olingan suyuqlikni atrof muhitga bug'lantiradi. Bu qatlam siyrak to'qilgan dokadan tayyorlanadi.

Nam so'rib oluvchi bog'lam – kuchli so'rib oluvchi ta'sir qilish uchun qo'llaniladi. Birinchi qatlam tuzlarning gipertonik eritmasiga (5-10 % li natriy xlorid va shakarli eritma, 20 % li magniy sulfat yoki natriy sulfat eritmasi) to'yintirilgan dokali kompress yoki dokali drenaj qo'yiladi. Qolgan qatlamlari quruq so'rib oluvchi bog'lamlarnikidan farq qilmaydi.

Qisuvchi bog'lam hayvon tanasining ma'lum bir qismiga bir xil bosim orqali ta'sir qilish maqsadida qo'llaniladi. Masalan: qon oqishni to'xtatish uchun.

Immobilizasiyalovchi (harakatsiz, qo'zg'almas) bog'lam – aniq ko'rsatgichli hollarda, kasallangan manbaga qimirlamaslik holatni ta'minlash maqsadida qo'yilib, davolash uchun yaxshi sharoit yaratadi.

Qizdiruvchi kompressli bog'lam – hayvon tanasining ma'lum bir oblastida mahalliy harorat darajasini oshiradi. Birinchi qatlam bir necha qavatli to'qimadan iborat bo'lib, u uy haroratigacha qizdirilgan suv, 40-50 % spirt yoki 5 % osh sodasi eritmasiga botiriladi. To'qima yengil qisiladi va belgilangan joyga qo'yiladi. Kompressning birinchi qatlami jarohatlangan oblastning barcha tomonidan 2-3 sm chiqib turishi zarur. Bu qatlamning ustidan ikkinchi – havo va suv o'tkazmaydigan mato (kliyonka, pergamentli qog'oz, sellofan va boshqalar) bilan to'lig'icha yopiladi. Uchinchi qatlam issiqlikni yaxshi ushlaydigan (yog'sizlantirilmagan paxta, qalin movut) material bo'lib, ikkinchi qatlamni hamma yo'nalishda bir

necha santimetrغا ortiq qoplab turishi kerak. Yuqorida qayd qilingan qatlamlarni qo'yilgan joylarida ushlab turish uchun bintli yoki boshqa bog'lam qo'yiladi. Bu kompressli bog'lamni har 4-6 soatda almashtirib turiladi.

Bintli bog'lamlar – qo'yish shakliga qarab: sirkulyarli (aylanma), burama (spiralli), siljuvchi, sakkizsimon va hayvonning alohida organlariga (shoh, tuyoq, dum va boshqalar) qo'yadigan bo'ladi. Bintli bog'lamlarni qo'yish shunday o'tkazilishi kerakki, operatsiya o'tkazilgandan keyin jarohatlangan oblast tinchlik bilan ta'minlanishi zarur. Qo'yilgan bog'lam qon va limfa oqimiga to'sqinlik qilmasligi hisobga olinib, bintni o'rash tashqaridan markazga vena va limfa tomirlarining yo'nalishiga qarab qo'yiladi. Bintning o'rab boshlanishi va oxiri shikastlangan joyning qarama-qarshi tomonida qolishi kerak.

Sirkulyar bog'lam va qo'yish texnikasi – eng oddiy. Bint oxiri chap qo'lda, bint o'raydigan organ ustida qiya yo'nalishda ushlanib, o'ng qo'l yordamida bint o'rami yechilib, keyingi o'ramlari oldingisini to'liq yopadi. Shunday qilib, aylanma bog'lam kengligi, bint kengligiga teng bo'ladi. Bintning dastlabki o'ramda chiqib qolgan uchki qismi o'ram ustidan ichkariga qaytarilib, ikkinchi qatlam bilan yopib boriladi.

Aylanma bog'lamlar – tananing ma'lum chegaralangan qismiga qo'llanadi, bundan tashqari hamma qolgan bintli bog'lamlarni qo'yib boshlashda va bog'lam yakunida ham aylanma bog'lamdan foydalaniladi.

Burama (spiralsimon) bog'lam – pastdan balandga spiral shaklida aylantirilib, har bir keyingi o'ram oldingisining uchdan bir yoki ikkidan bir qismini yopadi. Bint qo'yish boshlanishida va oxirida 2-3 o'ram aylanma bog'lam qo'yiladi.

Bukiluvchi burama bog'lamlar – oddiy burama bog'lamlar yomon ushlaydigan hollarda, masalan, qismlari bir xil yo'g'onlikda bo'lmagan (yelka oldi, boldir) organlarga qo'yiladi. Bu ham aylanma o'ram bilan boshlanadi. O'rash marosimida bukilish hosil qilish uchun bintning yo'nalishini aylanma o'ramga qaraganda ancha qiya qilib yo'naltiriladi, chap qo'lning bosh barmog'i bilan bintning pastki cheti fiksatsiya qilinadi, o'ng qo'l bilan bintning bosh qismini

aylantiradi, oqibatda bintning ichki qismi tashqariga va aksincha tashqi qismi ichkariga qarab qoladi. Bu usulni bog'lamning har bir keyingi o'ramlarida qo'llaydi. Bintning bukilgan qismining yo'nalishi vertikal chiziqda bo'lishi kerak. Har bir keyingi o'ram oldingisining yarmini yopadi. Bog'lam aylanma o'ram bilan tugallanadi.

Siljuvchi bog'lam – bintning har bir o'rami pastdan yuqoriga buramasimon shaklda qo'yilib, o'ramlar oralig'ida bintning kengigiga teng joy qoladi. Bog'lam boshlanishida va tugashida aylanma bog'lam qo'yiladi. Siljuvchi bog'lamlar immobilizatsiyali bog'lamlar tagiga qo'yiladigan materiallarni fiksasiya qilishda qo'llaniladi.

Sakkizsimon bog'lam – xususan bint o'ramining yo'nalishi sakkizsimon shaklda bo'lganligi uchun aytiladi. Uni tananing tekis yuzaga ega bo'lmagan, masalan: tushov yoki bilakuzuk bo'g'imlariga, burama bog'lamlar ushlaymaydigan qismlarga qo'yiladi. Bint o'rash bo'g'imning pastki qismidan boshlanib, unga aylanma bog'lam qo'yib, so'ngra bintni chapdan o'ngga va yuqoriga qarab qiya yo'naltiriladi. Bo'g'im yuqorisida yana bir necha aylanma o'ram qo'yib, yuqoridan pastga qarab qiya yo'naltiriladi. Bo'g'im ustida pastdan chiqayotgan o'ram bilan kesishadi. Bu usulni bog'lanadigan joy to'lig'icha yopilguncha davom ettiriladi. Har bir keyingi o'ram o'zining qiya yo'nalishida oldingi o'ramning uchdan ikki qismini yopib boradi.

Shoxga bog'lam qo'yish – bint o'rash sog'lom shoxga bir necha o'ram aylanma bog'lam qo'yishdan boshlanib, so'ngra bint uchini doka o'ralgan, kasallangan shoxga qarab yo'naltiriladi va uning asosiga 2-3 qavat aylanma o'ram qo'yiladi. Shox uchi bint bilan to'liq yopilib, spiralsimon o'ramni shox asosiga tomon yo'naltiriladi. Bog'lamni sog'lom shox'ga mustahkamlash bilan tugallanadi.

Tuyoqqa bog'lam qo'yish – oyoqni ko'tarib tuyoq kaftidagi chuqur qismini paxta-dokali kompress bilan to'ldiriladi. Gultoj yoki tushov bo'g'imiga bir necha o'ram aylanma bog'lam qo'yilib, bu bilan birgalikda gultojning tovon qismida bintning boshlanish uchidan 20-25 santimetr erkin qoldiriladi, bu qoldirilgan uzun

uchidan har bir keyingi o'ramlar shu orqali o'tib natijada bo'shalmasdan mustahkamlanadi. So'ngra bintni tuyuqning shoxsimon devori orqali tuyuq kaftiga yo'naltiriladi, yumshoq tomvon chegarasida yordamchi tortib ushlab turgan bintning yana erkin uchidan aylantirib oladi. Bintni qaytadan yumshoq tovon va tuyuq devori orqali gultojgacha yo'naltiriladi. Bunda dastlabki o'ramning yarmi yopiladi. Tovonga yotgandan keyin bintning erkin uchiga qaytadan o'raladi va orqaga qaytarib tuyuq devori orqali kaft hamda gultojga yo'naltiriladi. Shu usulda tuyuq va gultoj to'lig'icha yopilguncha davom ettiriladi, oxirida bintning ikkala erkin uchlari bir-biriga bog'lanadi. Bintli bog'lamni ifloslanish va tez shikastlanishdan saqlash uchun bog'lam ustidan brezent yoki kliyonka yordamida yopilib, ip yoki tasma bilan fiksasiya qilinadi.

Dunga bog'lam qo'yish – dum jarohatlanganda sag'rin, son, chot oralig'idagi ochiq jarohatlarning ifloslanishlarini oldini olish maqsadida qo'yiladi. Dunga bintli burama bog'lam qo'yish uning ildiz tomonidan boshlanadi. Bog'lam yaxshi ushlashi uchun har bir o'ramdan keyin ustiga bir tutam halqa qilingan dum qili joylashtiriladi va bu halqani bintning keyingi aylanasi bilan o'rab ketiladi. Bog'lam yaxshi ushlashi va bintni tejash maqsadida dum oxiridagi juni ikki halqa qilib buklanib, bint o'rashni shungacha davom ettiriladi, bog'lashni oddiy spiralsimon o'ram bilan tugatiladi. Dum oxiridagi halqadan bint o'tkazilib, dumni tortib hayvon bo'yniga fiksasiya qilib qo'yadi.

Maxsus bog'lamlar

Maxsus bog'lamlarni xomsurp – oqartirilmagan bo'z matodan tayyorlanadi va hayvon tanasining alohida qismlariga kesib moslashtiriladi. Bu bog'lamlarni boshqa turdagi bog'lamlar yomon ushlaydigan vaqtlarda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Karkasli (simchali) bog'lamlar – o'zining asosida tayanchli moslamalar (sim) bo'lib, bilak, boldir, tovon bo'g'imi, ensa, yag'ir va yelka oblastlarida bog'lovchi materiallarni fiksasiya qilish uchun xizmat qiladi.

Bilak oblastiga karkasli bog'lam qo'yish (Andreyyev usuli) – boldir oblastida bog'lovchi materiallarni yaxshi ushlaydi. Uzunligi hayvonning bilak yoki boldiriga

to'g'ri keladigan to'rt bo'lak yumshoq simdan karkas to'qiladi. Simning har qaysisiga teri shikastlanishining oldini olish maqsadida simdan 2-3 santimetr kalta rezinali naycha kiygiziladi. Simlarning erkin uchlarida halqa yasalib, ulardan rezina naychalari o'tkaziladi. Ularning uzunliklari bilak (boldir) aylanasi dan ancha uzun, ya'ni bog'lab tugun qo'yishi uchun yetarli bo'lishi zarur.

Karkasni qo'yishdan oldin bilak (boldir)ga 2-3 qatlam bog'lovchi material o'ralib, uning ustiga karkas qo'yiladi. Shundan keyin rezina naychaning uchlari bir-biri bilan bog'lanadi. Rezina naychalar teri va chuqurda yotgan to'qimalarni qisib qo'ymasligini ta'minlash uchun bog'lovchi materiallarni karkasning yuqorisi va pastki qismidan 1,5-2 santimetr tashqariga chiqarish lozim. Karkasning qattiqligini va bog'lamning siljimasligini yanada oshirish uchun karkas ustiga rezina naychalardan tashqari chiqarib bog'lovchi materiallar o'raladi va bintli spiralsimon bog'lam qo'yib fiksasiya qilinadi.

Tovon bo'g'imiga karkasli bog'lam qo'yish – bog'lovchi materiallar tovon do'ngligining yuqorigi va pastki chizig'ida fiksasiya qilinganda faqat hayvon tinch turgandagina emas, balki u harakatlenganda ham bog'lam yaxshi ushlab turiladi.

Bog'lam quyidagilardan iborat: 1. diametri 4-8 smli rezina halqa va unga bir-biridan teng uzoqlikda bog'langan to'rtta dokali tasma; 2. uzunligi va kengligi bo'g'imni 1,5-2 qatlam qilib o'rash uchun yetarli bo'lgan ikkita qatlamli qilib tayyorlangan paxta-dokali kompress.

Kompress o'ralgandan keyin bo'g'imning bukuvchi yuzasiga rezina halqa qo'yiladi, yuqorigi ikki tasma kompressning ustidan, boldirning pastki (distal) tashqi va ichki yuzasidan yo'naltirilib, axill payi ustida bog'lanadi.

Yelimli bog'lamlar – maxsus yelimlar yordamida hayvon tanasining har qanday qismiga, to'g'ridan-to'g'ri teriga yoki jun qoplamasiga qo'yilishi mumkin. Ular boshqa bog'lamlarga nisbatan qator ustunliklarga egadir: qo'yish texnikasi oddiy; kam miqdorda bog'lovchi materiallar talab qilinadi; organlarni qismaydi, qon va limfa tomirlarining odatdagi (normal) aylanishiga to'sqinlik qilmaydi; jarohat atrofini to'liq kuzatishga imkon beradi. Bog'lamni to'liq yechmasdan

to'g'ridan-to'g'ri jarohat yuzasida yotgan bog'lovchi materiallarni almashtirishga to'la imkoniyat yaratadi. Bir necha yelim turlaridan foydalaniladi:

Kazeinli yelim – SP-104, SP-105 markali kulrang yoki oq rangli kukun. Bir qism yelim va 1,5 qism suvni aralashtirganda dastlabki 2 minutda quyuq massa hosil bo'ladi, keyinchalik suyuqlana boshlaydi va 4 minutdan so'ng ishlatish uchun yaroqli bo'lgan qaymoqsimon quyuqlik darajasiga ega bo'ladi. 10-15 minut o'tgandan keyin quyuq masaga aylanadi va o'zining yelimlash xususiyatini yo'qotadi. Bu yelim bog'lamlarni namlangan jun qoplamida ham fiksasiya qilib, uni 15 kungacha ushlab turadi. Doka va undan tashqari qattiq to'qimalar, qog'oz hamda sellofanni ham yaxshi ushlab yelimlaydi. Bog'lam isitilgan sovunli suvda yengil yechiladi.

Sink-jelatinli yelim – tarkibi quyidagicha: sink oksidi-30,0, gliserin-60,0, jelatin-90,0, distillangan suv-150,0 100⁰S gacha qizdirilgan suv idishida, suvda jelatin eritiladi, shundan keyin gliserin qo'shiladi va to'xtovsiz aralashtirilib kam-kam miqdorda sink oksidi qo'shiladi. Yelimli issiq holda jun qoplamasiga surtib tezlikda unga bog'lovchi materiallar yopishtiriladi. Bog'lam 2-3 minut o'tgandan keyin quriydi va 10-12 kun davomida yaxshi ushlab turadi. Yelimni yechishda issiq suvdan foydalaniladi. Sovib qolgan yelimni qayta qizdirgandan so'ng yana uni ishlatish mumkin.

Kollodiy – kolloksilinning spirt va efir aralashmasidagi yopishqoq eritmasi bo'lib, erituvchilar bug'lanib ketgandan qattiq parda hosil qiladi. Uni operatsiyadan keyingi jarohatlarni yoki anatomik bo'shliqlarni (ko'krak, qorin, bo'g'im kapsulasi) punksiya qilgandan so'ng himoya qilishda qo'llanadi.

Buning uchun jarohatni yoki teshilgan joyni yupqa gigroskopik paxta bilan yopib, ustidan bir tekisda kollodiy surtiladi.

Immobilizasiyalovchi (harakatsizlantiruvchi) bog'lam – hayvon tanasining qismlariga to'liq harakatsizlikni va shikastlangan organlarga tinchlikni ta'minlaydi. Bu bog'lamlar suyaklar singanda, paylar va bog'lamlar uzilganda, chiqishlarda va boshqa hollarda qo'llaniladi. Organlarga to'liq harakatsizlikni ta'minlashda, ayniqsa suyaklar singanda, bog'lam shikastlangan joydan yuqoridan bir bo'g'imni

va pastdagi bir bo'g'imni albatta o'z ichiga olishi kerak. Immobilizasiya qiluvchi bog'lamlarga shinali va qotiruvchi-gipsli bog'lamlar kiradi.

Shinali bog'lamlar – o'zining asosida har xil turdagi shinalardan tayanch moslamalariga ega bo'lib, oyoqlar yuqoridagi ko'rsatgichlar bilan shikastlanganda, vaqtincha harakatsizlikni ta'minlaydi. Qon va limfa almashinuvining buzilishi va shish rivojlanishining, to'qimalar joyidan siljishi va qayta shikastlanishining oldini olish, og'riqni kamaytirish uchun shikali bog'lamlarni jarohatlangandan keyin qancha erta qo'yilsa, shuncha maqsadga muvofiq bo'ladi. Lekin oyoqlarni immobilizasiya qilishni to'liq ta'minlamaydi, shuning uchun uni ishonchli qotiruvchi bog'lamlar bilan almashtirguncha qo'llanadi.

Bu bog'lam tagiga qo'yiladigan shinalar va fiksasiya qiluvchilardan tashkil topgan. Tagiga qo'yish uchun yog'sizlantirilmagan paxta, kanop va boshqa qo'l ostidagi to'qimalar ishlatiladi. Shinalar, yumshoq simlar, tunuka, faner, daraxt po'stlog'i, karton va boshqa materiallardan tayyorlanadi. Fabrikada tayyorlangan simli, Kramerning narvonsimon va to'rsimon shinalari veterinariya desmurgiyasi talabiga keng darajada javob beradi.

Shinali bog'lamni qo'yishda oyoq bo'g'imlariga yengil egilgan holat beriladi. Shikastlangan soha terisi dokali salfetka bilan yopiladi. Uning ustiga yog'sizlantirilmagan paxtadan qalinligi 1-1,5 smdan iborat teng qatlam bilan o'raladi, suyak do'ngliklariga qalinroq qatlam qo'yiladi va siljituvchi bintli bog'lam bilan fiksasiya qilinadi. Ustidan avval moslab tayyorlangan shinalar qo'yiladi; simli shinalar faqat dorsal va palmar tomonlardan; fanerli, daraxt po'stlog'i va boshqalar hamma to'rttala tomonidan; shina uchlarini bilan terini shikastlamaslik maqsadida ularning tagiga qo'yiladigan materiallardan 4-5 sm kalta qilib tayyorlanadi. Tagiga qo'yilgan materiallarning pastki va ustki qismidan chiqib turgan qismini shina uchlariga o'rab qo'yiladi. Shinalarni o'z joyida bintli spiralsimon bog'lam yoki boshqa fiksasiya qiluvchi vositalar yordamida berkitiladi.

Tamasov shinasi – itlarda oyoqlarning yuqorigi segmentlari singanda fiksasiya qilishda qo'llanadi. Uni tayyorlashning bir varianti ko'ndalang kesimi 5-

10 mm bo'lgan yumshoq sim bo'lib, uzunligi hayvonning katta-kichikligiga bog'liqdir. Simning o'rta qismida ko'krak yoki orqangi oyoqlarning yuqori zvenolarining aylanasi va formasiga mos keladigan halqa shakllantiriladi. Oyoq uzunligiga moslashtirib simning oxirgi uchlari bukiladi va birlashtiriladi. Tayyorlangan karkasga oyoqlar shakli beriladi.

Gipsli bog'lamlar – ko'pincha hayvonlarning shikastlangan suyak joyini qimirlatmaslik uchun gipsli o'rashni qo'llash kerak. Gips-sulfat kalsiy tabiatda uchraydigan kimyoviy element hisoblanadi. Gips maxsus pechlarda (140°S dan yuqori bo'lmagan darajada) qizitib olinadi. Gipsning xususiyati shundaki, u o'ziga suvni tezlik bilan olib qotadi.

Gipsning quruqligini sinash. Gips talqonini kaftga olib kuch ishlatib qattiq siqiladi. Agar gips talqoni haqiqatda quruq bo'lsa, unda panjalarning orasidan chiqib, qoldig'i esa kaftning yuza qismida oz miqdordagi ortig'i chuvalak bo'lib qoladi. Bordi-yu gips sifatsiz bo'lsa, u chog'da panjalarning orasidan gips talqoni chiqmasdan loyqaga o'xshab kaft betiga yopishib qoladi.

Sifatli gips suvda aralashtirilgandan keyin 5 minut vaqt o'tishi bilan tez qotadi. Bordi-yu gips asta-sekinlik bilan qotsa, u vaqtda unga qo'shadigan suvning issiqlik darajasini biroz yuqori ko'tarish zarur. 1 % kvass eritmasi, 1-3 % natriy xlorid eritmasi, ohak suti gipsning qotishini tezlashtiradi. Agar gipsning qotish jarayoni juda tez bo'lsa unda sovuq suv, 10 % natriy xlorid eritmasi, kley, tuxum oqsili, sut, kraxmal aralashtirilsa gipsning qotish jarayonini pasaytiradi.

Gipsni bog'lash texnikasi – asosan ikkiga bo'linadi: bint orqali va longetni ishlatib.

Bint usuli. Tekis karton yoki fanerning ustiga uncha qalin bo'lmagan gips talqoni sepiladi va uning ustiga bintning ochilgan yuza qismiga ham gips talqoni sepiladi va kaft yordamida muqarrar qalinlikda yoziladi, shunda dokaning xonachalariga gips talqonining kirishiga yordam beriladi. Ortib qolgan gips talqonini bint yuzasidan tushirib, keyin uni yengil o'rash kerak. Bintning qolgan qismi bo'shashtirilib, gipslashtirish shu usul bilan davom ettiriladi.

1. Oyoqni gipslashga tayyorlash. Oldin singan suyakni tortish usuli orqali o'z shakliga keltiriladi. Bordi-yu oyoqning biron bo'g'imi o'rnidan chiqqan bo'lsa, uni o'z joyiga kirgizishga harakat qilinadi. Kirgizishdan oldin narkotik modda ishlatiladi yoki mahalliy anesteziya o'tkaziladi. Gipslashni boshlashdan oldin oyoqning shikastlangan joyi toza doka bilan o'raladi, keyin uning ustidan sariq paxta qo'yib, sudraluvchi usul bilan shu yer o'raladi. Siniq suyakning bo'rtib chiqib turgan joyiga paxta qo'yib qalinlashtiriladi. Paxtasiz gipslashning farqi birinchidan shundaki, operasiya ishi tezlik bilan bajariladi, ikkinchidan oyoq uchun yengillik, chiroyli va mustahkam bo'ladi.

2. Gipslangan bintni qo'llash. Uy harorati yoki biroz undan issiq suv ichiga gipslangan bint botiriladi, shunda uning orasida pufakcha shaklida havo chiqib boshlaydi. Havosi tamom bo'lishi bilan gipslangan bintni suv idishidan chiqarib u biroz qisiladi, shunda ortiqcha suv chiqib ketadi, lekin iloji boricha bint tarkibida gips ko'proq kolishi kerak.

3. Gipslangan bintni o'rash. Burab o'rash usulini qo'llab chetdan markazga qarab bintni bukmasdan o'raladi. Oyoqning yuqori va pastki tomonlariga joylashgan paxta, o'ralayotgan bintning ikki chekkasidan biroz tashqariga chiqib turishi albatta zarur, chunki bu 1-2 sm chiqib turga paxta tana terisiga o'ralgan bintning bosim kuchini qaytarishga ko'maklashadi, shunda tomir va nervlar qisilmaydi. Kichik mollarga 4-5, katta hayvonlarga 10-15 qavat gipslangan bint o'raladi.

4. Namunali o'rash. Bu usulni bajarish uchun gips talqoni suyuqlashtiriladi. Har bir davrani o'ragandan keyin yordamchi oldindan tayyorlab qo'yilgan gipsli bo'tqani o'ralgan bintning ustidan surtib, notekis joylarni to'ldirib, kafti bilan tekislaydi, shu bilan o'ralgan bintning shaklini to'g'rilaydi.

5. Taxtacha qo'yish. Mustahkam bo'lishi va shu bilan birga o'ram qavatlarining sonini kamaytirish maqsadida bint o'rashda ikkinchi va uchinchi yoki to'rtinchi va beshinchi gipslangan bintni o'rash davra qavatining orasiga taxtacha joylashtiriladi: kichik hayvonlar uchun karton yoki daraxtning po'stlog'i, yirik mollarga esa faner yoki temirdan yasalgan shina ishlatiladi.

Longetni ishlatish usuli. Longet keng doka bintidan tayyorlanadi. Longetning uzanasi va eni o'raladigan joyning katta-kichikligiga qarab moslashtiriladi. Longetning qo'yilgan qavat soni (4, 8, 12 va 20 qavat) hayvonning turiga, yoshiga bog'liq bo'ladi. Longetni yasash jarayonida har bir yangi o'raladigan davra qavati alohida gipslashtiriladi. Odatga ko'ra longet ikkita tayyorlanadi – oyoqning oldi va orqa yoki tashqi va ichki tomonlariga moslashtiriladi. Ba'zan bitta longetni qo'llash bilan chegaralanadi, qaysiki kaft va barmoqning bukiladigan yoki shularning ma'lum biqin chegara tomonlariga. Longetni qo'yishdan oldin uni ho'llash zarur, keyin biroz qisib undagi ortiqcha suvni chiqarishga harakat qilinadi. So'ngra gipslangan yoki oddiy bint orqali burama usuli bilan o'rab mustahkamlanadi. Longetni o'rash usuli astarli va astarsiz bo'ladi.

Darichali o'rash. Zarba natijasida suyakning sinishidan tashqari mayib bo'lgan joyida teri buzilishi natijasida yara ham mavjud bo'lib qoladi, ana shunda darichali gips o'rash talab qilinadi. Shu yerda bo'lgan yara yuzasida bo'lgan iflosliklarni tozalagandan so'ng uning ustini toza dokali salfetka bilan yopiladi, keyin ustiga o'zining doirasiga qarab probka, stakan yoki uzunchoq quticha bilan vaqtincha bekitib, uning atrofidan aylanma shaklida bint o'raladi, natijada hosil bo'lgan darichaning chekka devorlarini gipsli bo'tka surtib tekislanadi. Bu o'rnatilgan daricha orqali yara davolanadi. Davolash ishlari tugullangandan keyin darichani sariq paxta tiqib o'ldiriladi va uni aylanma bint o'rab yopiladi.

Tabaqali o'rash. Masalan, paylarning cho'zilishida yopiq gipslash usulining o'rniga tabaqali gips qo'llagan maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu usul quyidagicha amalga oshiriladi: zararlangan soha yopiq usul bilan gipslanadi, 15-20 minut vaqt o'tgandan so'ng o'ralgan gipsli bog'lam uzunasiga ikki tomonidan kesiladi, natijada gipsli tabaqa vujudga keladi. Tabaqaning kesilgan chekkalari tayyorlab qo'yilgan gipsli bo'tqa surtib tekislanadi, keyin uni tanadan ajratib, pechkada quritib yana o'z joyiga o'rnatib bint bilan o'rab mustahkamlanadi.

Ko'priksimon o'rash. Ikkita yopiq alohida gipslangan o'rovni sim orqali birbiriga ulashtirilsa bu ko'priksimon gips o'rash deyiladi. Suyak ochiq sinishida yoki

bo'g'imni ochiq qoldirish maqsadida bu usul qo'llaniladi. Buning ajarilishi quyidagicha: yuqori va pastda joylashgan turli bo'g'implarni yopiq usul bilan gipslanganda o'rash davrasining 4-6 qavatlar oralig'iga yoy shaklidagi metalladan shina joylashtiriladi. Shinani o'rnatgach yana 6-10 marotaba gipslangan bint o'raladi.

Gips o'rovini olib tashlash. Gipslangan o'rovni turli muddatlar orasida: yirik hayvonlardan 10-15 hafta ichida olib tashlanadi, gipslangan o'rovni maxsus qaychi yoki Rixterning pichog'i yo qaychisi orqali kesiladi. Kesishdan oldin mo'ljallangan chiziqni kuchli uksus kislotasi eritmasi yoki issiq quyuqlashgan natriy xlorid eritmasi orqali o'ralgan bint yumshatilib, keyin bog'lam uzunasiga kesiladi.

3.4. Suyak sinishlarini konservativ davolash

Yopiq sinishlarda jarohatga yoki hayvon tanasining ma'lum bir qismiga, ikkilamchi shikastlanishlardan, infeksiya tushishidan himoya qilish va qon oqishini to'xtatish maqsadida bog'lovchi materiallar qo'llaniladi. Masalan: jarohatga so'rib oluvchi bog'lam qo'yish, yopiq shikastlanishlarga isituvchi astarlik kompress qo'yish, singanda va chiqqanda tana qismini yoki organni kerakli holatda immobilizasiya qiluvchi, qotiruvchi bog'lamlar qo'yish va hokazolar. Bog'lovchi materiallar yumshoq, egiluvchan, to'qimalarga yaxshi yotuvchi bo'lishi kerak. Ochiq shikastlanishlarga qo'yganda yaxshi so'rib oluvchi va bug'lanuvchi xususiyatiga ega bo'lishi lozim. Namlikni qabul qilib olmaydigan materiallar (astarlik), suyuqlikni qabul qilish kerak bo'lmaydigan bog'lamlar qo'ygan hollarda ishlatiladi. Juda yaxshi bog'lovchi materiallari bo'lib: doka, momiq (yog'sizlantirilgan) paxta, qalin surp, bo'z, kliyenka, sellofan hisoblanadi.

Hayvonga gipsli bog'lam qo'yish texnikasi

Oyoqni gipslashga tayyorlash uchun oldin singan suyakni tortish usuli orqali o'z shakliga keltiriladi. Bordi-yu oyoqning biron bo'g'imi o'rnidan chiqqan bo'lsa, uni o'z joyiga kirgizishga harakat qilinadi. Kirgizishdan oldin narkotik modda ishlatiladi yoki mahalliy anesteziya o'tkaziladi. buning uchun umumiy og'riqsizlantirish va harakatsizlantirish maqsadida muskul orasiga 1 ml/kg 2,5 % li

aminazin va 0,2 ml/kg 2 % li ketamin eritmasi yuboriladi. Kesim chizig'i bo'ylab 10 ml 0,5 % li novokain eritmasi yuboriladi.

Gipslashni boshlashdan oldin oyoqning shikastlangan joyi toza doka bilan o'raladi, keyin uning ustidan sariq paxta qo'yib, sudraluvchi usul bilan shu yer o'raladi. Siniq suyakning bo'rtib chiqib turgan joyiga paxta qo'yib qalinlashtiriladi. Paxtasiz gipslashning farqi birinchidan shundaki, operasiya ishi tezlik bilan bajariladi, ikkinchidan oyoq uchun yengillik, chiroyli va mustahkam bo'ladi.

Gipslangan bintni qo'llash uchun uy harorati yoki biroz undan issiq suv ichiga gipslangan bint botiriladi, shunda uning orasida pufakcha shaklida havo chiqib boshlaydi. Havosi tamom bo'lishi bilan gipslangan bintni suv idishidan chiqarib u biroz qisiladi, shunda ortiqcha suv chiqib ketadi, lekin iloji boricha bint tarkibida gips ko'proq kolishi kerak.

Gipslangan bintni o'rashda burab o'rash usulini qo'llab chetdan markazga qarab bintni bukmasdan o'raladi. Oyoqning yuqori va pastki tomonlariga joylashgan paxta, o'ralayotgan bintning ikki chekkasidan biroz tashqariga chiqib turishi albatta zarur, chunki bu 1-2 sm chiqib turga paxta tana terisiga o'ralgan bintning bosim kuchini qaytarishga ko'maklashadi, shunda tomir va nervlar qisilmaydi. Kichik mollarga 4-5, katta hayvonlarga 10-15 qavat gipslangan bint o'raladi.

Gipslangan o'rovni turli muddatlar orasida: yirik hayvonlardan 10-15 hafta ichida olib tashlanadi, gipslangan o'rovni maxsus qaychi yoki Rixterning pichog'i yo qaychisi orqali kesiladi. Kesishdan oldin mo'ljallangan chiziqni kuchli uksus kislotasi eritmasi yoki issiq quyushlashgan natriy xlorid eritmasi orqali o'ralgan bint yumshatilib, keyin bog'lam uzunasiga kesiladi.

4. Veterinariya ishini tashkil etish va uning iqtisodi

Hozirgi kunning bozor iqtisodiyoti davrida aholining go'sht, sut va boshqa chorvachilik mahsulotlari bilan ta'minlash juda katta ahamiyatga ega. Bunign uchun chorva mollarini kasalliklardan saqlash uchun veterinariya ishini tashkil etish kerak.

Tuman veterinariya bo'limlari hozirgi kunda quyidagi tartibda ish olib boradi: 1 tuman bosh veterinariya vrachi, epizootologik vrach, vrach terapevt, feldsher, aptekachi, 1-sanitar va 2-yordamchi, hisobchi, qorovul.

Tuman veterinariya bo'limining vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Tuman jo'jaliklarida veterinariya sanitariya tadbirlarini o'tkazish.
2. Hayvonlarga kerakli davolash yordam ko'rsatish va uni takomillashtirish.
3. Aholining zooantroponoz kasalliklardan ximoya qilish, bularga qo'y, qoramollarning ayrim yuqumli kasalliklari kiradi.

Hozirgi kunda mamlakatimizning sifatli chorva mahsulotlari bilan ta'minlash maqsadida hozirgi kunda veterinariya xizmati juda yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Hozirgi kunda mamlakatimizdagi har bir viloyatda veterinariya boshqarmalari bo'lib, ularga esa tuman veterinariya bo'limlari bo'ysunadi.

Tuman veterinariya punktida tuman veterinariya bosh vrachi boshqaradi. Veterinariya punktlari bo'linma mudiri, veterinariya feldsherlari, VSE laboratoriya mudiri va laborantlardan iborat.

Veterinariya bo'limida vet.laboratoriyasi bo'lib, tuman veterinariya bo'limiga bo'ysunadi.

Veterinariya bo'limida quyidagi bo'limlar mavjud:

1. Serologik bo'lim
2. Bakteriologik bo'lim
3. Radiologik bo'lim
4. VSE bo'limi

Veterinariya laboratoriyasi juda yaxshi jihozlangan bo'lib, unga kasallangan hayvonlardan olingan numanalar, siydik, qon, axlat yoki pat.materiallar tekshirish uchun yuboriladi.

Tuman veterinariya bo'limi quyidagi shtat va birliklardan iborat:

1. Bosh veterinariya vrachi
2. Epizootolog
3. Vrach terapevt
4. Apteka mudiri
5. Hisobchi
6. Sanitar
7. Qorovul
8. Farrosh
9. Shofyor

Tuman veterinariya bo'limining vazifalari quyidagilar:

1. Tuman xo'jaliklarida veterinariya sanitariya tadbirlarini o'tkazish.
 - a) Hayvonlarga kerakli davo va muolajalar qilish;
 - b) Xo'jaliklarda vaksinasiya ishlarini tashkil qilish, nazorat qilish;
 - v) Bozorlarda sotiladigan chorva mahsulotlarini davlat standartlari darajasida bo'lishini ta'minlash.
2. Aholining zooantroponoz kasalliklardan himoya qilish.

Veterinariya xizmatiga zarur bo'lgan mablag'lar quyidagi manbalardan keladi:

1. Davlat byudjetidan
2. Davlat sug'urtasidan
3. Chorvachilik bilan shug'ullanuvchilar ajratgan mablag'lar hisobiga
4. Aholiga ko'rsatilgan pullik xizmat hisobidan
5. Byudjet hisobidagi veterinariya muassasalari va tashkilotlarning maxsus mablag'laridan.

Mablag'dan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

1. Veterinariya tashkilotlari va muassasalarini ushlab turish uchun.

2. Epizootiyaga qarshi tadbirlar uchun.
3. Veterinariya obyektlarini ta'minlash.
4. Chorva mollarni diagnostik tekshirish uchun.
5. Chorva mollarni davolash va muolajalar uchun ishlatiladi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA TO'G'RISIDAGI QONUNI

1. Umumiy qoidalar.

1-modda. Veterinariya.

Veterinariya - hayvonlarni kasalliklardan muhofaza qilish hamda ularni davolash, ishlab chiqarish va aholining yuqori sifatli chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, odamlarning hayvonga ham, insonga ham xos kasalliklarga chalinishining oldini olish, shuningdek atrof muhitni muhofaza qilishning veterinariya sanitariya muammolarini hal etishga doir davlat, jamoat, xo'jalik va maxsus veterinariya tadbirlari majmuidan iboratdir.

2-modda. Veterinariyaning vazifalari.

Quyidagilar veterinariyaning asosiy vazifalari hisoblanadi: Hayvonlarni (chorva mollar, parrandalar, mo'ynali va boshqa hayvonlarni, baliqlar, asalarilar, hayvonot bog'laridagi va boshqa shu kabilardagi jonivorlarni kasalliklardan himoya qilish;

Aholini odam va hayvonlar uchun umumiy bo'lgan kasalliklardan muhofaza qilish;

O'zbekiston Respublikasi hududini boshqa davlatlar hududidan hayvonlarning yuqumli kasalliklari olib kirilishidan muhofaza qilish;

Yagona davlat veterinariya nazoratini amalga oshirish;

Atrof muhitni himoya qilishning veterinariya-sanitariya muammolarini hal etish;

Veterinariya xodimlari tayyorlash va ularni malakasini oshirish;

Fan va texnika yutuqlarini veterinariya amaliyotiga tadbqiq etish.

3-modda. Veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlari.

Veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonunda hamda unga muvofiq chiqariladigan boshqa qonun hujjatlaridan iborat bo'ladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida veterinariya ishi Qoraqalpog'iston Respublikasi qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

4-modda. Veterinariya tuzilishi.

O'zbekiston Respublikasida Davlat veterinariyasi, idoraviy va xususiy veterinariyalar amal qiladi.

Davlat veterinariya xizmatini O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi Vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi, viloyat va Toshkent shahrining davlat veterinariya boshqarmalari, tumanlar, viloyat va tuman bo'ysunuvidagi shaharlarning davlat veterinariya bo'limlari, ularning qoramog'idagi hayvonlar kasalliklariga qarshi kurash stansiyalari (tuman veterinariya stansiyalari), diagnostika markazlari, veterinariya shifoxonalari, laboratoriyalari, ekspedisiyalari, hayvonlar kasalliklariga qarshi kurash otryadlari, bozorlardagi veterinariya-sanitariya ekspertizasi laboratoriyalari va davlat veterinariya tarmog'ining boshqa tashkilot va muassasalari amalga oshiradilar.

Joylardagi davlat va idoraviy veterinariya bo'linmalarining tuzilishi va mikdori chorvachilikning rivojlanish xususiyatlarini, qushxona va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarining joylashtirilishi hisobga olgan holda shakllantiriladi hamda bosh davlat veterinariya nozirlari bilan kelishilgan holda mahalliy hokimiyat organlari tomonidan belgilanadi.

Davlat va idoraviy veterinariya xizmati muassasalari qoshida qonunlarga muvofiq shartnoma asosida veterinariya xizmati ko'rsatadigan qo'shma korxonalar, kooperativlar va boshqa xo'jalik hisobidagi birlashmalar tuzilishi mumkin.

5-modda. Veterinariya xizmatini boshqarish.

O'zbekiston Respublikasi veterinariya xizmatiga rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jalik vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi amalga oshiradi. Davlat veterinariya bosh boshqarmasiga O'zbekiston

Respublikasi Qishloq va suv xo'jalik vazirligi tayinlaydigan boshliq boshchilik qiladi.

Davlat veterinariya bosh boshqarmasi xalqaro veterinariya tashkilotlarida O'zbekiston Respublikasi nomidan vakillik qabul qiladi.

Viloyatlarda va Toshkent shahrida veterinariya xizmatiga rahbarlikni tegishincha viloyatlar va Toshkent shahrining davlat veterinariya boshqarmalari amalga oshiradilar. Viloyatlar va Toshkent shahrining davlat veterinariya boshqarmalariga tegishli viloyat va Toshkent shahri hokimlari bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi tayinlaydigan boshliq boshchilik qiladi.

Tuman va shaharlarda veterinariya xizmatiga rahbarlikni tuman va shahar davlat veterinariya bo'limlari amalga oshiradilar. Tuman va shaharlardagi veterinariya bo'limlariga tegishli tuman va shahar hokimlari bilan kelishilgan holda viloyat davlat veterinariya boshqarmalari tayinlaydigan boshliq boshchilik qiladi.

Davlat chegarasida va transportda veterinariya xizmatiga rahbarlikni davlat chegarasi va transportdagi davlat veterinariya nazorati boshqarmasi amalga oshiradi. Davlat chegarasi va transportdagi davlat veterinariya nazorati boshqarmasiga O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jalik vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi tayinlaydigan boshliq boshchilik qiladi.

Viloyatlar, shaharlar va tumanlardagi veterinariya xizmatini boshqarish davlat idoralari vakolatlari doirasida tegishli hokimlarga va yuqori idoralarga bo'ysunadilar.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jalik vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi to'g'risida nizom O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jalik vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

II. VETERINARIYA XIZMATI

6-modda. Davlat veterinariya xizmatining vazifalari.

Davlat veterinariya xizmati idoralari o'z vakolatlari doirasida idoraviy mansubligi hamda mulk shaklidan qat'iy nazar, barcha korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning ishi ustidan, shuningdek ayrim shaxslarning faoliyati ustidan veterinariya-sanitariya nazoratini amalga oshiradilar.

Davlat veterinariya xizmati:

Epizootik vaziyatni baholaydi va o'ziga berilgan vakolatlar doirasida hayvonlarning yuqumli kasalliklarning oldini olish va ularni yo'qotish tadbirlarini amalga oshirish yuzasidan bajarilishi majburiy ko'rsatmalar beradi;

O'zbekiston Respublikasi hududini chetdan hayvonlarning yuqumli kasalliklari kirib kelishidan qo'riqlash, mollar, hayvonotga mansub mahsulotlar va xom ashyo, yem-xashak, ozuqabop qo'shimchalar va chorvachilikda qo'llaniladigan boshqa vositalarni tayyorlash, tashish, xorijdan keltirish ustidan nazoratni amalga oshiradi;

Kasalliklarning kelib chiqishi va hayvonlarning nobut bo'lishining sabablarini tahlil qiladi, bunday hollarning oldini olish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi, hayvonlarni davolash ishini tashkil etadi;

Hayvonlarning kasalliklarini aniqlash, shuningdek yem-xashak va ichimlik maqsadida laboratoriya-klinik hamda boshqa tadqiqotlar o'tkazadi;

Hayvonlarning yuqumli, invazion kasalliklarining oldini olish va bartaraf etish tadbirlarini amalga oshiradi;

Sog'likni saqlash organlari va boshqa xizmatlari bilan birgalikda odamlar va hayvonlar uchun xavfli bo'lgan yuqumli kasalliklar manbaiga barham beradi, shuningdek o'zaro axborotlar ayirboshlaydi;

Veterinariya-sanitariya jihatdan yuqori sifatli chorva mahsulotlari va xom ashyosi ishlab chiqarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

Barcha chorvachilik obyektlari, qushxonalar, go'sht-sut va boshqa mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalar, bozorlar va xom ashyo omborlarining veterinariya-sanitariya holatini nazorat qiladi, bu obyektlarning qurilishi va qayta qurilishini, shuningdek yer qazish ishlarini veterinariya ekspertizasidan o'tkazadi;

O'zbekiston Respublikasining, boshqa davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslaridan yuqumli kasalliklar yoyilib ketishining oldi olinishi va bartaraf etilishini ta'minlash tadbirlari o'tkazilishini, shuningdek hayvonlarning epizootik holatini aniqlash uchun zarur bo'lgan axborotni taqdim etishni talab qiladi;

Yuqumli kasalliklar aniqlanganda yoki hayvonlarning o'ta xavfli kasalligi mavjudligi haqida shubha paydo bo'lganida yuridik va jismoniy shaxslarga mollarni so'yish yoki yo'q qilib tashlash, chorvachilik mahsulotlarini va hayvonotga mansub xom ashyoni zararsizlantirish, ularni ishlovdan o'tkazish yoki ulardan foydalanishga doir bajarilishi majburiy talablarni belgilab qo'yadi;

Davlat idoraviy va xususiy veterinariya mutaxassislarining faoliyatini nazorat etadi va muvofiqlashtiradi;

Veterinariya sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtiradi.

7-modda. Davlat veterinariya inspektorlari.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jalik vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya Bosh boshqarmasining boshlig'i O'zbekiston Respublikasining Bosh davlat veterinariya inspektori hisoblanadi, uning o'rinbosarlari – O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat veterinariya inspektorining o'rinbosarlari, viloyatlar va Toshkent shahrining davlat veterinariya boshqarmalari – viloyatlar va Toshkent shahrining Bosh davlat veterinariya inspektorlari, ularning o'rinbosarlari esa tegishincha viloyatlar va Toshkent shahri Bosh davlat veterinariya inspektorlarining o'rinbosarlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat veterinariya bosh boshqarmasining davlat chegarasi va transportdagi davlat veterinariya nazorati boshqarmasi boshlig'i, davlat chegarasi va transportdagi Bosh davlat veterinariya inspektori hisoblanadi, uning o'rinbosarlari esa davlat chegarasi va transportdagi Bosh davlat veterinariya inspektorining o'rinbosarlari hisoblanadilar.

Shaharlar va tumanlar davlat veterinariya xizmatlarining boshliqlari tegishli shahar va tumanning davlat veterinariya inspektori hisoblanadi.

Chegara va transportdagi veterinariya punktlarining (uchastkalarining) boshliqlari tegishli chegara uchastka va transportdagi davlat veterinariya inspektorlari hisoblanadilar.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jalik Vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasining veterinariya mutaxassisleri o'z vakolatlari doirasida davlat veterinariya inspektorlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Bosh davlat veterinariya inspektori, viloyatlar, Toshkent shahri, davlat chegarasi va transportdagi bosh davlat veterinariya inspektorlari, ularning o'rinbosarlari va davlat veterinariya inspektorlari va vakolatlari doirasida ushbu Qonunga muvofiq yagona davlat veterinariya nazoratini amalga oshiradilar.

8-modda. Davlat veterinariya inspektorlarining vakolatlari.

Bosh davlat veterinariya inspektorlari, ularning o'rinbosarlari hamda davlat veterinariya inspektorlari o'z vakolatlari doirasida.

Vazirliklar, idoralar, jamoa xo'jaliklar, davlat xo'jaliklari boshqa korxonlar, tashkilotlar va muassasalarga, shuningdek alohida shaxslarga zarur veterinariya sanitariya tadbirlari va epizootik kasalliklarga qarshi tadbirlar o'tkazish to'g'risida bajarilishi majburiy ko'rsatmalar beradilar;

O'zbekiston Respublikasi veterinariya bosh boshqarmasi belgilaydigan ro'yxatdagi o'ta xavfli yuqumli kasalliklarga chalingan hayvonlar aniqlangan takdirda bu hayvonlarni so'yish yoki yo'q qilib tashlash to'g'risida, shuningdek iste'molga yaroqsiz deb topilgan hayvonotga mansub mahsulotlar va xom ashyoni yo'q qilib tashlash, ishlovdan o'tkazish yoki o'zga tarzda foydalanish to'g'risida barcha korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va alohida shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar beradilar;

Veterinariya nazorati ostidagi obyektlarga kecha-kunduzning istalgan paytida bemalol, mone'liksiz kiradilar va veterinariya qonunlarining buzilganligi hollarini bartaraf etish xususida hamma uchun majburiy ko'rsatmalar beradilar;

Chorvachilik fermalari, mol va parranda kushxonalari, hayvonotga mansub mahsulotlar va xom ashyoni ishlovdan o'tkazish hamda saqlash korxonalari,

utilizatsiya zavodlari, baliqchilik xo'jaliklari, hayvonlarni sun'iy qochirish stansiyalari va boshqa chorvachilik obyektlarining rejasini tuzish, ko'rish va ishga tushirish loyihalari, shu jumladan ana shu obyektlardagi oqindi suvlarni zararsizlantirish inshootlari loyihalari xususida xulosalar beradilar;

Yuqorida qayd etilgan barcha turdagi qurilishlar uchun yer uchastkalari ajratib berish, mollar uchun suv olish joylarini tanlash, go'sht kombinatlari va boshqa hayvonotga mansub mahsulotlar hamda xom ashyoni ishlovdan o'tkazish va saqlash korxonalarining suv ta'minoti loyihalari xususida xulosalar beradi;

Holati veterinariya-sanitariya jihatdan konikarsiz yoki mollar sog'ligiga, shuningdek mahsulotlar sifatiga zararli ta'sir ko'rsatish xavfi bo'lgan temir yul vagonlari, kemalar, samolyotlar va boshqa transport vositalaridan foydalanishni taqiqlaydilar;

Chorvachilik obyektlari, go'sht va sut sanoati korxonalaridan, hayvonotga mansub mahsulotlar va xom ashyoni qayta ishlaydigan hamda saqlaydigan korxonalarining hayvonlarning yuqumli kasalliklari jihatidan nobopligi yoki veterinariya-sanitariya holati qoniqarsizligi aniqlanganda ulardan foydalanishni ta'qiqlaydilar;

Hayvonlar gigiyenasi normalari va veterinariya-sanitariya qoidalarining aniqlangan buzilishlari bartaraf etulgunga qadar chorvachilik yormalarida, hayvonlarga mansub mahsulotlar va xom ashyoni ishlodan o'tkazish hamda saqlash korxonalarida ishlab chiqarish binolari va inshootlari qurilishini, qayta qurilishni, yangi qurilgan, taqiqlangan va qayta qurilgan obyektlarning foydalanishga topshirilishini to'xtatib qo'yadilar;

Ushbu Qonunni, hayvonlar karantini qoidalarini, boshqa veterinariya-sanitariya talablarini buzganlik uchun mansabdor va o'zga shaxslarga belgilangan tartibda muvofiq ma'muriy jazo beradilar;

Hayvonlarning egalari hayvonotga mansub mahsulotlarni qayta ishlash, saqlash va sotish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar, shuningdek fuqarolar va veterinariya mutaxassislari ushbu Qonun, qonun asosida chiqarilgan hujjatlar va

veterinariyaning boshqa talablarini bajarishlari ustidan nazoratni amalga oshiradilar;

Chegara joylarda, ko'shni davlatlarda yuzaga kelgan epizootik vaziyat to'g'risida tegishli tashkilotlar va idoralarni xabardor qiladilar, zarur tavsiyalar beradilar;

Veterinariya dori-darmonlar, biologik, kimeviy va boshqa dorilar ishlab chiqarilishini hamda ulardan chorvachilik va veterinariyada foydalanishini nazorat qiladilar, ularning hayvonlar sog'ligi va hayvonatga mansub mahsulotlarning sifatiga ta'sirini baholaydilar.

9-modda. Davlat veterinariya xizmatini moddiy va moliyaviy ta'minlash.

Davlat veterinariya xizmati:

Respublika va mahalliy byudjet mablag'lari, davlatning mollarini sug'urta qilish mablag'laridan ajratmalar, pullik xizmatlar ko'rsatganligi uchun veterinariya korxonalari, muassasalari va tashilotlari oladigan mablag'lar hisobiga ta'minlanadi.

Ushbu Qonun talablarini buzganlik uchun undiriladigan ma'muriy jarima pullari viloyat va Toshkent shahrining epizootik fondlariga tushadi.

Ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo'yiladigan hayvonlar yuqumli kasalliklarining oldini olish va bartaraf etish tadbirlari hisobidan amalga oshiriladi.

10-modda. Idoraviy veterinariya xizmati.

Idoraviy veterinariya xizmati vazirliklar, idoralar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning tasarrufida bo'ladi.

Idoraviy veterinariya xizmatlarining veterinariya mutaxassislari o'z vakolatlari doirasida davlat veterinariya idoralarining uslubiy rahbarligi va nazorati ostida hayvonlarga idoraviy veterinariya nazoratini va veterinariya xizmati ko'rsatishni amalga oshiradilar.

11-modda. Idoraviy veterinariya xizmati veterinariya mutaxassislarining huquqlari.

Idoraviy veterinariya xizmatining veterinariya mutaxassislari:

Idoraga qarashli veterinariya nazorati ostidagi obyektlarga kecha-kunduzning istalgan paytida bemalol, mone'liksiz kirish va veterinariya to'g'risidagi qonunlarning aniqlangan buzilishlarini bartaraf etish haqida bajarilishi majburiy ko'rsatmalar berish;

Yuridik va jismoniy shaxslardan epizootik kasalliklarning oldini olishni va ular bartaraf etilishini ta'minlaydigan tadbirlar o'tkazishni, shuningdek idoraga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda hayvonlarning epizootik holatini aniqlash uchun zarur ma'lumotlarni taqdim etishni talab qilish huquqiga egadirlar.

12-modda. Idoraviy veterinariya xizmati veterinariya mutaxassislarining vazifalari.

Idoraviy veterinariya xizmatining veterinariya mutaxassislari, veterinariya to'g'risidagi qonunlarning bajarilishi ustidan o'z vakolatlari doirasida idoraviy veterinariya nazoratini amalga oshirishlari;

Xizmat ko'rsatilayotgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda epizootik kasalliklarga qarshi tadbirlar, davolash va veterinariya-sanitariya tadbirlari o'tkazishlari;

Hayvonlarda yuqumli kasalliklar borligi xususida shubha paydo bo'lganda bu haqda davlat veterinariya xizmati idoralariga zudlik bilan xabar qilish va kasalliklarning tarqalib ketishiga yo'l quymaslik uchun barcha zarur choralarni ko'rishlari;

Epizootik kasalliklarga qarshi tadbirlar, veterinariya-sanitariya va davolash-profilaktika tadbirlari o'tkazish hamda veterinariya to'g'risidagi qonunlar buzilishida aybdor bo'lgan mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish yuzasidan mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga takliflar kiritishlari;

Amalga oshirilgan ishlar haqida davlat veterinariya xizmati oldida belgilangan tartibda hisobot berib borishlari shart.

13-modda. Idoraviy veterinariya xizmatini ta'minlash.

Idoraviy veterinariya xizmati tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, xo'jalik hisobidan ta'minlanadi.

14-modda. Xususiy veterinariya faoliyati.

Xususiy veterinariya faoliyati bilan veterinariya vrachi bo'lgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar shug'ullanishiga haqlidirlar.

Veterinariya feldsherlari va texniklari veterinariya vrachi nazorati ostida xususiy ish bilan shug'ullanadilar.

Xususiy veterinariya faoliyati bilan shug'ullanayotgan veterinariya mutaxassislari belgilangan tartibda berilgan tegishli ruxsatnomalar (lisenziyalar) ga ega bo'lishlari shart.

15-modda. Xususiy veterinariya faoliyati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarining huquqlari.

Xususiy veterinariya faoliyati bilan shug'ullanuvchi veterinariya mutaxassislari:

Hayvonlarning karantin yoki qonunlarda belgilangan cheklashlar qo'llanadigan kasalliklarga chalinishi hollarini istisno etganda kasallikni aniqlab tashxis quyish va davolash bilan shug'ullanishga;

Hayvonlarni kasallanishdan saqlash maqsadida emlash tadbirlari o'tkazishga, shuningdek hayvonlarning egallariga maslahat berishga;

Hayvonlar sog'ligiga doir veterinariya hujjatlar berishga;

Mollar va boshqa hayvonlarning yuqumli kasalliklarga chalinishi xavfi paydo bo'lganida hayvonlarni, hayvonatga mansub mahsulotlar va xom ashyoni, shuningdek yem-xashakni obyektga chetdan olib kirish va obyektidan chetga olib chiqishni taqiqlab kuyishga haqlidirlar.

16-modda. Xususiy veterinariya faoliyati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar vazifalari.

Xususiy veterinariya faoliyati bilan shug'ullanuvchi veterinariya mutaxassislari:

Hayvonlarda yuqumli kasalliklar borligi xususida shubha paydo bo'lganida bu haqda mahalliy davlat veterinariya xizmatiga zudlik bilan xabar qilishlari va kasalliklarning tarqalib ketishiga yul qo'ymaslik choralari ko'rishlari;

Kasalliklar keng tarqalib ketganida davlat veterinariya ko'rsatmalariga muvofiq ravishda veterinariya tadbirlari amalga oshirishlari;

Amalga oshirayotgan ishlari haqida davlat veterinariya xizmati oldida belgilangan tartibda hisob berib borishlari shart.

III. HAYVON VA CHORVACHILIK MAHSULOTLARI EGALARINING HUQUQ HAMDA VAZIFALARI

17-modda. Hayvon va chorvachilik mahsulotlari egalarining huquqlari.

Hayvon va chorvachilik mahsulotlari egalari:

Veterinariya xizmati ko'rsatilishi uchun davlat, idoraviy va xususiy veterinariya xizmatlari bilan shartnomalar tuzish;

Veterinariya xizmatidan hayvonlarning kasallikga chalinish darajasi, epizootik vaziyat va hayvonlar hamda chorvachilik mahsulotlarini maxsus tadqiq etish natijalari haqida axborot olish;

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jalik vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi belgilangan tartibda hayvon va chorvachilik mahsulotlari, yem-xashak, veterinariya dori-darmonlar sotib olish va sotish, shu jumladan xorijdan sotib olish va xorijga sotish;

Mahalliy hokimiyat organlari, davlat, idoraviy veterinariya xizmatlari hamda xususiy veterinariya faoliyati bilan shug'ullanayotgan mutaxassislarning g'ayriqonuniy hatti-harakatlari va ko'rsatmalari ustidan shikoyat qilish huquqiga egadirlar.

18-modda. Hayvon va chorvachilik mahsulotlari egalarining vazifalari

Hayvon va chorvachilik mahsulotlarining egalari:

Ushbu qonun va veterinariya to'g'risidagi boshqa qonun hujjatlarining talablariga rioya etishlari;

O'z mablag'lari hisobiga hayvonlar yuqumli kasalliklarga chalinishining oldini olishga karatilgan tashkiliy-xo'jalik va veterinariya tadbirlarini amalga oshirishlari, byudjetdan moliyaviy ta'minlanadigan tadbirlar bundan mustasno;

Kasal hayvonni davolatishlari, zarur bo'lganda veterinariya mutaxassisining ko'rsatmasiga binoan so'yish yoki yo'q qilib tashlanishini ta'minlashlari;

Kasallik qo'zg'atuvchi mikroblar bilan ifloslangan yoxud zararlangan chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarilishi va sotilishi istisno etuvchi hayvonlar gigiyenasi normalarini bajarishlari va veterinariya-sanitariya qoidalariga rioya etishlari;

Hayvon sotib olinganligi va ularning to'satdan harom o'lishi yoki g'ayriodatiy hatti-harakati hollari to'g'risida muayyan hududga xizmat ko'rsatuvchi tegishli veterinariya xizmatiga zudlik bilan xabar qilishlari;

Veterinariya xizmatining hayvonlarni yuqumli kasalliklardan muhofaza etish yuzasidan bergan taqdimnomalarni bajarishlari hamda karantinga doir tegishli tadbirlar va boshqa veterinariya tadbirlari o'tkazilishini ta'minlashlari, shuningdek davolash-prafilaktika ishlovlarini to'liq hajmda o'tkazishlari;

Chorvachilik fermalarini, hayvonlar hamda chorvachilik mahsulotlarini saqlanadigan binolar va boshqa inshootlarni, shuningdek yaylovlar, suv xavzalari, mol haydab o'tiladigan yullar, temir yul bekatlari, ko'rgazmalar, yarmarkalar, bozorlar, so'yish punktlari, maydonchalar, go'sht kombinatlari, separator bo'limlari, sut punktlari va zavodlarini lozim bo'lgan veterinariya-sanitariya holatida saqlashlari, ularda dezinfeksiyalash, dezinseksiyalash va deratizasiyalash ishlarini o'z vaqtida o'tkazishlari, shuningdek o'lgan hayvonlar jasadini yig'ishtirib olishlari va yo'q qilib tashlashlari;

Hayvonlar hamda chorvachilik mahsulotlari va xom ashyosi savdo-sotig'ini faqat davlat veterinariya xizmatining ruxsati bilan maxsus ajratilgan joylarda veterinariya-sanitariya qoidalariga rioya etgan holda amalga oshirishlari;

Veterinariya mutaxassislarining talabiga binoan hayvonlarni ko'rikdan, diagnostik tekshiruvdan, ehtiyot shart yo'sinida emlashdan va davolash-profilaktika ishlovlaridan o'tkazish uchun topshirilishini ta'minlashlari, veterinariya xodimlariga ko'rsatilgan veterinariya xizmatlari evaziga hak to'lagan holda veterinariya tadbirlarini o'tkazish uchun zarur shart-sharoit yaratib berishlari;

Yuqumli kasalliklarning paydo bo'lishi yoki chorva mahsulotlarining yaroqsizligi hayvon egalarining aybi bilan paydo bo'lganligi sud tomonidan

isbotlangan hollarda sog'lomlashtirish tadbirlariga ketgan xarajatlarni davlat veterinariya xizmatiga to'lashlari;

O'zbekiston Respublikasi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi tomonidan tasdiqlanmagan biopreparatlar, dori-darmonlar, ozuqabop qo'shimchalar, mikroelementlar, biologik kuchaytirgichlar va garmonlarni chorvachilikda qo'llamasliklari;

O'zbekiston Respublikasi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi tomonidan belgilangan veterinariya-sanitariya talablariga hamda hayvonlar, hayvonga mansub mahsulotlar va xom ashyo hamda yem-xashakni chet eldan sotib olish va chet elga chiqarish talablariga rioya etishlari shart.

IV. HAYVONLARNING YUQUMLI KASALLIKLARI TARQALGANIDA KARANTIN BELGILASH VA UNI BEKOR QILISH TARTIBI

19-modda. Hayvonlarning yuqumli kasalliklari tarqalganida karantin yoki cheklashlar.

Hayvonlarning yuqumli kasalliklari tarqalgani aniqlangan hollarda tuman (shahar) davlat, veterinariya inspektorining taqdimnomasiga binoan mahalliy hokimiyat organlarining qarorlari bilan ayrim podalar, otarlar, uyurlar, qo'ralar, fermalar, xo'jaliklar, korxonalar, temir yul bekatlari, aeroportlar, daryo portlari, qishloq va qo'rg'onlarning hududlari hayvonlarning yuqumli kasalliklari tarqalganligi jihatidan yomon ahvolda deb e'lon kilinadi hamda ularda karantin yoki zarur cheklashlar o'rnatiladi.

Tumanlarni, shaharlarni, viloyatlarni, hayvonlarning yuqumli kasalliklari tarqalganligi jihatidan yomon ahvolda deb e'lon qilish hamda ularda karantin yoki boshqa cheklashlar o'rnatish tegishli bosh davlat inspektorlarining taqdimnomasiga binoan viloyatlar va Toshkent shahri hokimiyatining vakillik organlari yoki viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining qarorlari bilan yoki O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat veterinariya inspektorining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan amalga oshiriladi.

Hayvonlarning yuqumli kasalliklari bilan og'rishi batomom to'xtaganidan keyin karantin yoki cheklashlar o'rnatilgan hududda zarur veterinariya-sanitariya tadbirlari amalga oshirilganda kasalliklarga qarshi kurash qo'llanmalarida ko'rsatilgan muddat o'tganidan so'ng tegishli bosh davlat veterinariya inspektorlarining taqdimnomasiga binoan karantin yoki cheklashlar o'rnatgan tuman, shahar, viloyat va Toshkent shahri hokimiyatining vakillik organlari yoki hokimlarining qarorlari bilan yoxud O'zbekiston Respublikasi Bosh Davlat veterinariya inspektorining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi Vazirligining qarori bilan karantin yoki cheklashlar bekor kilindi.

Tarqalishi oqibatida karantin yoki cheklashlar belgilanadigan hayvonlarning yuqumli kasalliklari ro'xati O'zbekiston Respublikasi. Qishloq va suv xo'jaligi Vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi tomonidan tasdiqlanadi.

20-modda. Epizootik kasalliklarga qarshi favqulodda komissiyalar

Hayvonlar yalpi kasallanishi hamda nobud bo'lishining oldini olish va bartaraf etish yuzasidan korxonalar, muassalar, tashkilotlar va ayrim shaxslar faoliyatiga kundalik rahbarlik qilish hamda bu boradagi ishni muvofiqlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, shahar va tuman hokimiyatining vakillik organlari yoki hokimlar tomonidan o'zining tasdiqlangan Nizomiga muvofiq ish olib boruvchi epizootik kasalliklarga qarshi komissiyalar tuziladi.

V. YAKUNIY QOIDALAR.

21-modda. Veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik.

Veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlari bo'zilishida aybdor bo'lgan shaxslar muvofiq intizomiy, moddiy, ma'muriy va jinoiy javobgar bo'ladilar.

22-modda. Veterinariya xodimlarining davlat sug'urtasi.

Davlat veterinariya idoralarining xodimlari byudjet hisobiga davlat tomonidan majburiy sug'urta qilishlari lozim.

23-modda. Xalqaro shartnomalar.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida ushbu Qonundagidan o'zgacha qoidalar belgilab qo'yilgan bo'lsa, u holda xalqaro qoidalari qo'llanadi.

5. Hayot faoliyati xavfsizligi

5.1. Mehnatni muhofaza qilish

Mehnatni muhofaza qilishni tashkil etish tegishli qoida asosida olib boriladi.

Ishga qabul qilishda muhandis xavfsizlik qoidalari bo'yicha instruktaj o'tkazadi. Bunda ichki qonun-qoidalar, ishlab chiqarish sanitariyasi, tozaligi, elektr energiyasi va yong'inga qarshi tadbirlar, maxsus kiyimlarni saqlash, mollarni fiksasiya qilishda xavfsizlik qoidalariga e'tibor berish to'g'risida tushuntirish olib boriladi.

Kirish instruktajlarining kartochkasi kadrlar bo'limida saqlanadi. Ish joyidagi instruktajlar esa doimiy jurnalda qayd qilib boriladi. Mehnatni muhofaza qilish muhandisi ishchi komiteti bilan birgalikday mehnat sharoitini yaxshilash to'g'risida tadbirlar ishlab chiqadi va xuddi ish tadbirlar uchun xarajatlarni nazorat qilib turadi. Xo'jaliklarda mehnatni muhofaza qilish bo'icha maxsus kabinet bo'lib, unda maxsus plakatlar, adabiyotlar, asbob-uskunalar bilan jihozlanadi.

Mehnatni tashkil etishdagi katta e'tibor elektr agregatlaridan foydalanishga qaratiladi. Albatta, dastlab elektr agregatlarini o'rnatishga e'tibor beriladi, nazorat qilinadi. Jun qirqish punkti xo'jaliklarning sharq tomonida bo'lib, markaziy molxonadan 2 km uzoqlikda bo'lishi kerak. Punkt quruq, keng binoda, jun qirqish yog'ochli stollarda o'tkazilib, uzunligi 30 m bo'lishi lozim. Elektromontyor doimo punktda bo'lib, sistematik tarzda izolyasiyalarning holati, elektrodvigatellarni ishlashini nazorat qilib turishi kerak. Punktda ishlovchilar xavfsizlik qoidalari bilan yaqindan tanishtiriladi. Xo'jalikda tibbiyot xizmati yaxshi tashkil etiladi. Poliklinika xodimlari tez-tez oshxonalarni, do'konlarni sanitariya ahvolini tekshirib turadilar, ishchilarni, xizmatchilarni va mahalliy aholini yuqumli kasalliklarga qarshi emlab turadilar.

Xo'jalikning diqqat markazida yong'inga qarshi profilaktik tadbirlar turadi, albatta. Yong'inga qarshi shitlar (maxsus yashiklar) albatta tayyor holatda turadi.

Bizlarning fikrimizcha, biz tajriba o'tkazgan xo'jalikda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ayrim kamchiliklar mavjud edi. Masalan, ba'zi brigadalarning territoriyasi qisman ko'kalamzorlashtirilgan, veterinariya punkti, yotoqxona atrofidagi territoriyada tartibsizlik, xavfsizlik qoidalariga kam e'tibor berilgan. Maxsus cho'milish dushlari, maxsus kiyim saqlanadigan shkaflar mavjud emas.

Mehnatni muhofaza qilish xarajatlari to'g'risidagi hujjatlarni tahlil qilganimizda quyidagilarni aniqladik: Xarajat summasi quyidagicha taqsimlangan: 10 % ni texnika xavfsizligi uchun, 20 % ishlab chiqarish sanitariyasi uchun, 15 % tashkiliy tadbirlar uchun, 15 % li esa sport va fizkultura tadbirlari uchun.

Xo'jalikda baxtsiz hodisalarni hisobga olish va qayd qilish uchun maxsus jurnaldan foydalaniladi. Oxirgi uch yilda baxtsiz hodisa yuz bermagan.

Xizmat qiluvchi xodimlar maxsus kiyimlar bilan (kombinezon, fartuklar, oyoq kiyimi, himoya ko'zoynaklar va h.k.) ta'minlangan.

Maxsus ovqatlantirish yo'lga qo'yilmagan.

5.2. Fuqarolar mudofaasi

Fuqaro mudofaasining asosiy vazifasi favqulodda holatlar (sel, bo'ron, suv toshqini, tog' ko'chkisi, atom quroli, kimyoviy, bakteriologik qurol, zilzila) yuz berganda aholini, ularning chorva mollarini, qishloq xo'jalik ekinlarini muhofaza qilishga qaratilgan.

Q/x mutaxassisleri favqulotda holatlarda o'z yo'nalishi bo'yicha baja-rilishi lozim bo'lgan ishlar to'g'risida nazariy va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.

Favqulotda holatlar yuz berganda (veterinariya vrachlari zimmasiga quyidagi vazifalar yuklanadi. Yadro quroli qo'llanilish xavfi e'lon qilingan paytda:

1. Mavjud binolar hayvonlarni himoya qilish uchun tayyorlanadi;
2. Hayvonlarni qanday himoya qilish yo'llarining mavjudligini aniqlash;
3. Mavjud bo'lgan yem-xashakni qanday qilib himoya qilish mumkin, uning qanday yo'llari mavjud;

4. Hayvonlarni radioaktiv nurlanish, kimyoviy va bakteriologik qurollar ta'siridan himoyalash uchun zarur bo'lgan birinchi darajali ishlarni amalga oshirish;

5. Hayvonlarni veterinariya ishlovidan o'tkazish kabi birinchi darajali tadbirlarni amalga oshirish;

6. Hayvon go'shti va mahsulotlarini VSE dan o'tkazib xulosa berish.

Hujum xavfi tug'ilishi bilanoq xo'jalikdagi molxonalar va boshqa chorva binolari chorva mollarni himoya qilish uchun tayyorlanadi. Dag'al xashak va shirali oziqalar berkitiladi. Yalpi qirg'in qurolining ta'sirini yo'qotish uchun kerakli ehtiyot choralari ko'riladi va zararlanish manbaida ishlash uchun q/x texnikasi tayyor holatga keltiriladi. Hayvonlar uchun himoya vositalari asosan zotli hayvonlar hamda qoramollarni zararlanish zonasidan olib o'tish uchun oldindan belgilab qo'yiladi. Qoramollar va yilqilarning nafas olish hamda ovqat hazm qilish organlarini himoya qilish maqsadida materiallardan qo'lda oddiy usulda niqoblar tayyorlanadi. Himoya niqobi korpus, bog'lash moslamasi va tasmalaridan iborat. Niqob korpusi va tagligi 3 qavat to'qima materialidan tikilgan, orasiga chang o'tkazmaydigan filtrlovchi materiallar qo'yiladi.

Zararlangan hayvonlarni davolash. Bakteriologik qurol ta'sirida zaharlangan hayvonlarni himoya qilishda vaksinalash va hasharotlar, kanalar, kemiruvchilarga qarshi kurash tadbirlari katta rol o'ynaydi. Hayvonlarni o'z vaqtida o'ta xavfli yuqumli kasalliklarga qarshi spesifik vaksinalar bilan davolash, shu kasalliklarning paydo bo'lishini va tarqalishini oldini olish mumkin. Bunday emlash ishlari, kasalliklarning oldini olish usullari iloji boricha dushman bakteriologik qurol ishlatish ehtimoli bor bo'lgan joylarda o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Biroq bu tadbirlarni oldindan o'tkazish ba'zi bir qiyinchiliklar tug'diradi, chunki dushman tomonidan qaysi kasallik tarqatuvchi bakteriyalar qo'llanilishini oldindan bilish mumkin emas. Bundan tashqari, ba'zi bir yuqumli kasalliklarga qarshi spesifik vaksinalar (manqa, cho'chqalar afrika o'lati) va zardoblar yo'q.

Yadro qurolidan shikastlangan hududlarda mollarni va yem-xashaklarni qutqarish ishlari. Yalpi zararlanish zonalarida SNAVR olib borish katta

qiyinchiliklarga olib keladi. Chunki katta hajmdagi ishlarni juda qisqa vaqt ichida o'tkazishga to'g'ri keladi. Buzilgan inshootlarda joylarning DMLar bilan zararlanishi va kuchli yong'inlar oqibatida hosil bo'lgan tutunlar bu ishlarni olib borishini murakkablashtiradi. Lekin shunga qaramasdan, yong'inni o'chirish, yonayotgan va qulayotgan molxonalaridagi hayvonlarni qutqarish, ularni xavfsiz joylarga olib chiqish, shikastlangan mollarga tez yordam ko'rsatish hamda yem-xashakni saqlab qolish va energiya sistemasini tiklab qolish kerak.

6. Menejment asoslari

Menejment bu – inglizcha so'z bo'lib, ingliz tilining Oksford lug'ati-da berilgan ta'rifga binoan u: boshqaruv hokimiyati va san'ati; resurslar-ni boshqarish bo'yicha alohida mohirlik vama'muriy ko'nikmalar tunshuniladi.

Boshqacha so'z bilan aytganda, menejment bu – boshqaruv, ya'ni resurslarni, odamlarni boshqarish, samarali faoliyat olib borish va foyda olishni bilish, uni ko'paytirish jarayonidir.

Boshqaruv – bu tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish jarayonidir.

Bizning mustaqil Respublikamiz jadal rivojlanayotgan mamlakat bo'lib, uning iqtisodiy salohiyatida qishloq xo'jaligi muhim o'rinni egal-laydi. Bundan bir necha yillar muqaddam mustaqillikning qo'lga kiriti-lishi bozor iqtisodiga o'tish islohotlari, mehnatni tashkil etish hamda agrosanoat majmuida ishlab chiqarishni boshqarish va tashkillashtirishning yangi shakllarining hosil qilinishi dehqon va fermer xo'jalik-lari tarmoqlarining kengayishi rivojlangan ilg'or davlatlarning tajriba-lari bilan yaqindan tanishish va ularning ichidagi eng samarador-larini ishlab chiqarishga joriy etishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikami iqtisodiy mustaqillik borasida butun dunyo tajribasi va mamlakatimizning tarixiy rivojlanishi xususiyatlarini hisobga olib, bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos modelini yaratdi.

Agrosanoat majmuida ishlab chiqarishni boshqarish va tashkillashti-rish jarayonining bosh maqsadi mamlakatimiz aholisini oziq-ovqat mahsu-lotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun mo'l-ko'l qishloq xo'jalik mahsulotlari

yetishtirish hamda sanoatimizga talab darajasidagi xom-ashyo negizini yaratish eng muhim masala hisoblanadi.

Boshqaruv usullari bu – xodimlarga va umuman, ishlab chiqarish jamoalariga ta'sir ko'rsatish usullari bo'lib, bu usullar qo'yilgan maqsadlarga erishish jarayonida mazkur xodimlar va jamoalarining faoliyatini uyg'unlashtirishni nazarda tutadi.

Boshqarishning tashkiliy-ma'muriy usullari boshqarish usullari tizimida alohida o'rin tutadi. Bu usullarga:

- boshqarish apparatining muayyan strukturasini tuzish;
- har bir boshqaruv bo'g'inining funksiyalarini belgilash;
- kadrlarni to'g'ri tanlash;
- buyruqlar, farmoyishlar va qo'llanmalar chiqarish, ularning bajarilishini nazorat qilish;
- topshiriqlar va direktiv ko'rsatmalarni bajarmayotgan bo'linma va shaxslarga nisbatan majburiy choralarni qo'llash kiradi.

Tashkiliy-ma'muriy usullar yuqori organlar hokimiyatiga va quyi organlarning bo'ysunishiga asoslanadi. Shuning uchun ularni ko'pincha ma'muriy usullar deb yuritiladi.

Rahbarlarning ishchanlik va ma'naviy-madaniy xislatlarini baholash amaliyoti shuni ko'rsatadiki, bunda birinchi o'rinda e'tiqodlilik, topshirilgan ish uchun shaxsan javobgarlikni his qilish, halollik, vijdonlilik, kishilarga nisbatan mehribonlik va e'tibor bilan munosabatda bo'lish turadi.

Rahbarlik uslubi, belgisi va bo'ysinuvchilarga nisbatan munosabatiga qarab, barcha rahbarlarni quyidagi uch turga ajratish mumkin:

1. Avtokratik rahbarlar.
2. Liberal rahbarlar.
3. Demokratik rahbarlar.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni sanoat negizida o'tkazish bu hozirgi bozor iqtisodiyoti davridagi asosiy dolzarb vazifalarning biri hisoblanadi.

Chorvachilik mahsulotlarini sanoat usulida ishlab chiqarishning asosiy vazifasi bu - qishloq xo'jalik hayvonlarini biologik imkoniyat-laridan to'liq foydalanish hamda kam oziqa va mehnat sarflab, yuqori mahsuldorlikga erishishdan iboratdir.

Chorvachilik sohasini boshqarishni tashkil etish va ularni boshqarish organlarining strukturasi qishloq xo'jaligining boshqa sohalarini boshqarishni tashkil etishga o'xshashdir. Qoramolchilik fermalari, cho'chqachilik komplekslari va parrandachilik fabrikalarida asosiy ishlab chiqarish bo'linmasi sanoat korxonalaridagi kabi sexlar hisoblanadi.

Fermada ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ferma boshlig'i zimmasiga yuklatilgan bo'lib, u fermada javobgar shaxs hisoblanadi. Fermadagi barcha ishchi xizmatchilar unga bo'ysunadilar.

Xo'jalik kerakli mutaxassislar bilan ta'minlangan bo'lib, ular rahbariyat tomonidan tuzilgan reja asosida doimiy ravishda o'z malakalarini oshirib keladilar.

Umuman olganda xo'jalikda ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xo'jalikning rahbari zimmasiga yuklatilgan.

7. Xulosa

1. Itlar orasida suyaklarni sinishi keng tarqalgan kasallik bo'lib hisoblanadi va 8-12 % ni tashkil qiladi.
2. Itlarni suyak sinishlariga erta tashxis qo'yish va davolashni tashkil qilish katta ahamiyatga ega.
3. Distal suyaklarni yopiq sinishida konservativ usul (gipsli bog'lam) bilan davolash yaxshi natija beradi.
4. Singan suyaklarni konservativ usul bilan davolashda suyaklarni repozitsiyasiga ahamiyat berish lozim.

Amaliyotga tavsiyalar

1. Itlarni suyak sinishida erta tashxis qo'yish va davolashni tashkil qilish zarur.
2. Suyaklarni yopiq sinishida konservativ usul, gipsli bog'lam bilan davolash taklif qilamiz.

8. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. I.A.Karimov "Qishloq xo'jalik taraqqiyoti to'kin hayot manbai" birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 10 sessiyasida so'zlagan nutqi. 1997 yil 25 dekabr. Toshkent "O'zbekiston", 1998 yil.
2. I.A.Karimov "Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari". Toshkent "Sharq", 1998 yil.
3. I.A.Karimov "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarilari chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlan-tirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2006 yil 23 mart 308-qarori.
4. I.A.Karimov "Soglom ona va bola yili". Toshkent. 2016 y.
5. I.A.Karimov O'zbekistonning siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolini chuqurlashtirishning asosiy konsepsiyasi. Toshkent. 2011 yil. 17 yanvar.
6. Abramova A.A. «Metodi lecheniya pereloma kostey nijney chelyusti u sobak». Materiali Vserossiyskogo kongressa. Moskva 2004.
7. Akayevskiy A.I. «Anatomiya domashnix jivotnix» Moskva. 1982.
8. Aynikov V.V. «Opit primeneniya metodiki T.A. Yelizarova pri povrejdeniyax pozvonochnika u sobak». Moskva 2004.
9. Annikov V.V. «Osenka vozmojnosti optimizatsii reparativnogo okteogeneza s pomoo'yu biomaterialov alloplant». Moskva 2004.
10. Belov A.D. i drugiye. «Dinamika rasprostraneniya kalsiya i fosfora pri perelomax kostey. Nauchniye trudi Moskovskoy veterinarnoy akademii». Moskva 1996.
11. Volkov G.K. «Gigiyena v promishlennom ovsevodstve» Rosselkhozizdat. 1980.
12. Volkov M.V., Gudumauri O.N. «Oshibki i oslojneniya pri lechenii perelomov kostey» M, Medisina 1990.
13. Volkov M.V. «Povrejdeniya i zabolevaniya oporno-dvigatel'nogo apparata». M. Medisina 1989.
14. Voronsov A.A. «Bioximicheskiye metody opredeleniya gormonalnoy regul'yatsii ontogeneza». Moskva. 2004.

15. Dubrov Ya.G. «Vnutrennyaya fiksatsiya metallicheskim sterjnim pri perelome dlinnix trubchatix kostey», Medisina. 1989.
16. Yerofeyev S.A., Stepanov M.A. «Repozitsiya kostnix oblomkov pri lechenii bedrennoy i plechevoy kostey u sobak v usloviyax chrezkostnogo osteosinteza». Moskva 2004.
17. Kuznesov G.S. «Xirurgicheskiye bolezniivotnix v xozyaystvax promishlennogo tipa». Leningrad, 1980.
18. Lavriushyeva G.I. «O znachenii kompressii diastaza mejdublomkami pri srashchenii kostey pervichnim natyazheniyem». Jurnal Ortopediya. Travmatologiya № 8, 1968.
19. Lukyanovskiy V.A., Belov A.D. «Bolezni kostnoy sistemiivotnix». Moskva 1984.
20. Plaxotin M.V. i drugiye «Obshchaya veterinarnaya xirurgiya». Moskva, 1980.
21. Samoxin V.T. «Profilaktika narusheniy obmena mikroelementov uivotnix», Moskva. 1981.
22. Tkachenko S.S. «Sochetaniye odnoimennoy i dinamicheskoy kompressii pri pogrujnom osteosinteze plastinkami». Vestnik xirurgii. 1987.
23. Filippov Yu.I. «Novoye v lechenii perelomov kosteyivotnix». Moskva, 1986.
24. Tixonin I.Ya., Feydnyan M.A. «Profilaktika travmatizma krupnogo rogatogo skota», Moskva 1981.
25. Shakalov N.I. «Chastnaya veterinarnaya xirurgiya». Leningrad, 1981.
26. Yagnikov S.A., Ligtin V.N. «Asepticheskaya nestabilnost pri endoprotezirovanii tazobedrennix sustavov u sobak». Moskva 2004.
27. Alary G. Envizomental mobubdenum levels in indrastrial mobub-denosin of grazing cattel. 1981.
28. Care A.D. Calium and prosphate nomoeostasis in ruminates and its telationship. 1980.
29. Rubota G. How soils and dimate affect glass tetanus. 1981.
30. Lokat M.D. Ford G. Disordeis of endachordral ossification. 1981

31. Rodrigis Tyu Stadu on the hupocalenue effect ef calcitonin of various proxein fractions from plasma of parturient cows. 1980
32. Saiki Ye. Progressing alteration parathyroidi function in cattel jrom experimental high and lon cfliium fceding. 1981.
47. <http://www.skydog.info/veterinariya/23/526.alx>
48. <http://www.zooclub.ru/dogs/vet/20.shtml>.
49. <http://www.aibolit-911.narod.ru/a126.htm>
50. <http://www.zoosaratov.ru/article>.
51. http://vet-sovet.ru/article/article_blade01.shtml.
52. <http://www.infovet.ru>
53. <http://www.vetusklinika.ru/facilities/>
54. <http://www.oncouromir.ru/content>
55. <http://doggi.ru/publ/14-1-0-1984>
56. <http://animal.secret-woman.ru/dikr.html>